

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI

5111700-“Boshlang‘ich ta‘lim va sport- tarbiyaviy ish” yo‘nalishi 4 - kurs

013-68- guruh talabasi SHAMSIDDINOVA FERUZA OCHILNAZAR
QIZIning

ISLOM KARIMOV ASARLARIDA QO‘LLANILGAN XALQCHIL
IBORALARNING TAHLILI

mavzusida bakalavr darajasini olish uchun yozgan

BITIRUV MALAKAVIY
ISHI

Ilmiy rahbar: dots.D.Xalilova

“Himoyaga tavsiya etilsin”
Pedagogika fakulteti dekani
_____ dots. Sh. Nurullayeva
“ _____ ” _____ 2017- yil

Qarshi – 2017

MUNDARIJA:

KIRISH	3
I BOB. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov xalq tilining bilimdoni, mohir notiq egasi ekanligi	
1.1. I.A.Karimovning ijtimoiy mavzudagi asarlarida–xalq iboralari va maqollarining qo'llanilishi hamda falsafiy-tarbiyaviy ahamiyatini yoritilishi	7
1.2. I.A.Karimov nutqiy birliklaridagi fikrlarning xalqchilligi	20
II BOB. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch asarida qo'llanilgan xalq hikmatlarining ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyati	
2.1. I.A.Karimov asarlarida shaxs ma'naviyatiga e'tibor	28
2.2. Xalq ogzaki ijodi va tarixiy yodgorliklarning millat ruhiyatiga ta'siri	40
XULOSA	51
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	53

Ushbu bitiruv malakaviy ishimni buyuk siymo, mustaqil O'zbekiston davlatining asoschisi, yuksak ma'naviyat egasi Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning yorqin xotirasiga bag'ishlayman.

KIRISH

Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori, avvalambor, farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak.

Islom Karimov

Buyuk davlat arbobi, Islom Karimovning biz, yoshlarga bildirgan ishonchlariga sodiq qolishga va'da berib, Vatanimizning ravhaqi, tinchligi va osoyishtaligi uchun o'z kuchimizni bilim egallashga, halol mehnat qilishga, tinimsiz izlanishga safarbar qilishimiz kerak.

Mavzuning dolzarbligi. Islom Karimov ma'naviyat sohasidagi fundamental asarlari bo'lmish "Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch" asarida badiiy adabiyot mavzusiga to'xtalib: "Insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo'lsa, so'z san'ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotning insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarning esa inson ruhining muhandislari, deb ta'riflanishi bejiz emas, albatta.

Xalqimiz orasidan mana shu g'oyat mashaqqatli sohaga butun hayoti va noyob iste'dodini bag'ishlab, adabiyotimiz xazinasidan munosib o'rin egallagan o'lmas asarlar yaratgan buyuk so'z san'atkorlari-ularni barchasining nomlarini zikr etish, albatta, ko'p vaqtni talab qilgan bo'lur edi-yetishib chiqqani bilan barchamiz haqli ravishda faxrlanamiz.

Adabiyot, so'z san'ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo'lib keladi. Xususan, mustaqillik yillarida yurtimizda ma'naviyatimizning g'oyat muhim va uzviy qismi bo'lgan adabiyotni rivojlantirish, shoir ia yozuvchilarimizning ezgu

mehnatini qadrlash va munosib rag‘batlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar o‘z hosilini berayotgani, badiiy adabiyotimiz mavzular ko‘lami jihatidan ham, janrlar nuqtai nazaridan ham rang-barang bo‘lib borayotgani, adabiyot maydonida yangi-yangi nomlar paydo bo‘layotgani kitobxon xalqimizni albatta quvontiradi”¹ -deb yozadilar.

Badiiy adabiyotning falsafiy axloqiy-estetik g‘oyalari milliy istiqlol mafkurasi uchun negiz, poydevor bo‘lganligi uchun uni tadqiq etish dolzarb masaladir. Shuning uchun ham bugungi kunda badiiy adabiyotning falsafiy, axloqiy-estetik qirralarini o‘rganish fan, maorif, ma‘naviy ijtimoiy sohalarga olib kirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Inson ma‘naviy olamni his-tuyg‘ulari, aql idroki va iroda ixtiyori yordamida o‘zlashtirib boradi. Shaxs his-tuyg‘ularini shakllantirish va tarbiyalash, go‘zallikka nisbatan mehr uyg‘otish bugungi kunning dolzarb muammosiga aylangan².

Birinchidan, badiiy adabiyot milliy istiqlol g‘oyasining diniy, ma‘naviy ildizidir. Milliy istiqlol mafkurasining bosh g‘oyasi – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni ta‘minlashga xizmat qiladi. Badiiy adabiyot mustaqil O‘zbekistonda Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, o‘zaro hamkorlik va yosh avlodni tarbiyalashda asosiy vositalardan biri bo‘lib xizmat qila oladi;

Ikkinchidan, badiiy adabiyotdagi go‘zallikni bilish, idrok etish inson badiiy estetik tafakkurini o‘stiradi. Badiiy adabiyot namoyondalarining estetik qirralarini o‘rganish, baholash, ibratli tomonlarini ko‘rsatish hozirgi davr shaxsini komil inson qilib shakllantirishda alohida o‘rin egallaydi;

Uchinchidan, milliy istiqlol g‘oyasi va mafkuraviy jarayonlarning ma‘naviy sohadagi asosiy vazifalaridan biri ajdodlarimizning ilg‘or qirralarini, insoniylik mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish borasidagi ishlarni davom ettirish, toki bu qirralar xalqimizning ming yillik tarixi, bugungi ma‘naviy hayotimizning ham asosi

¹ Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch. –T.: Ma‘naviyat, 2008. 136-137 betlar.

² Husanov B.E. Shaxs va jamiyat munosabatlarida go‘zallikning namoyon bo‘lish xususiyatlari. Falsafa fanlari nomzodi, diss. Avtoreferati. –Toshkent, 2002. 4 bet.

ekanligi yosh avlod ongiga singib borsin. Shu ma'noda badiiy adabiyot biz uchun muhim hayotiy tamoyil bo'lib qolaveradi;

To'rtinchidan, badiiy adabiyot bizni xalqdan ajralmasdan, insonning nafaqat jismoniy va ichki ruhiy, ma'naviy dunyosini mukammal tarbiyasini qamraganligi bilan ham yuqori kamolot darajasiga – ya'ni komil inson bo'lishiga erishish uchun xizmat qiladi; o'zining mohiyati bilan bunyodkorlikka undagan, mehr-shafqat, odamiylik, vatanparvarlik, ezgulik ruhi bilan sug'orilgan badiiy adabiyot, hozirgi zamon kishisida ham shunday go'zal hulqlarni shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Badiiy adabiyotning falsafiy axloqiy-estetik g'oyalari milliy istiqlol mafkurasi uchun negiz, poydevor bo'lganligi bois uni tadqiq etish dolzarb masaladir. Shuning uchun ham bugungi kunda badiiy adabiyotning falsafiy, axloqiy-estetik qirralarini o'rganish fan, maorif, ma'naviy ijtimoiy sohalarga olib kirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

BMIning maqsadi va vazifalari. Mazkur bitiruv malakaviy ishning maqsadi Islom Karimov asarlarida qo'llanilgan xalq hikmatlari, maqollarni aniqlash va ular mohiyatini ochib berishdan iborat.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni bajarishni o'z oldimizga qo'ydik.

- Islom Karimov ijtimoiy sohaga oid bo'lgan asarlarida qo'llagan maqollarni tasniflash:

- xalq maqollari va xalqchil iboralarning mazmun-mohiyatini tahlil asosida yoritish:

- xalq hikmatlarning falsafiy va tarbiyaviy ahamiyatini ochib berish;

- xalq hikmatlarning buyuk ma'naviy meros ekanligini o'rganish va boshqalar.

Ishdagi ilmiy yangiliklar va erishilgan natijalar.

Bitiruv malakaviy ishimizda ilk bora xalq hikmatlari bo'lgan maqol va matallar, ya'ni xalq falsafasi durdonalari haqida ma'lumot berish va bu hikmatlarda Prezident Islom Karimov ham o'z asarlarida juda ko'p o'rinda foydalanilganligini ochib berishga harakat qildik. Barcha ijtimoiy fanlarda xalq hikmatlaridan foydalanishning

ahamiyatli ekanligi, dars jarayonini yaxshilashi, maqollar g‘oyaviy-mafkuraviy tarbiya tizimini shakllanishi va g‘oyaviy tarbiya vositasi ekanligi, jumladan, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov asarlarini o‘rganish orqali hikmatlardan bahramand bo‘lish mumkin ekanligi ilmiy asoslandi.

Ishning amaliy ahamiyati. Mazkur bitiruv malakaviy ishimizda keltirilgan ma’lumotlardan boshlang‘ich ta’limning “O‘qish”, “Odobnoma”, maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oily ta’lim muassasalarida olib boriladigan “Adabiyot”, “Nutq madaniyati”, “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar”, “O‘zbekiston tarixi”, “Madaniyatshunoslik”, “Falsafa”, “Ma’naviyat asoslari”, “Axloqshunoslik” fanlaridan ma’ruza, amaliy, seminar mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rishda, referat, kurs ishlari yozishda foydalanish mumkin

BMIning ob‘ekti va predmeti. Islom Karimovning turli sohalarga oid bo‘lgan asarlarida qo‘llagan maqollarni yoritish, xalq hikmatlarning falsafiy va tarbiyaviy ahamiyatini ochib berish orqali ijtimoiy va siyosiy nutqda xalq ijodi durdonalaridan unumli foydalanish malakasini shakllantirishdan iborat.

Mavzuni yoritishda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov asarlari, xalq maqollari to‘plamlari va boshqa ilmiy va ommaviy adabiyotlardan foydalandik. Adabiyotlar quyida ilova qilinmoqda.

Adabiyotlar orasida Prezident Islom Karimov asarlari asosiy manbaviy ahamiyatga egadir. Jumladan, Islom Karimovning “Yuksak manaviyat-yengilmas kuch” –T.: 2008 yil, “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” –T.: 2011 yil va boshqa asarlari hamda “O‘zbek xalq maqollari” –T.: 2013 yil kabi kitob va risolalar foydalandik.

Ishning joriylashuvi. Bitiruv malakaviy ish “Adabiyotshunoslik” kafedراسi yig‘ilishida (2017-yil 12-may, 10-bayonnoma) muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi.

BMIning tarkibi: Ish kirish, 2 bob, 4 paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ish hajmi 54 sahifani tashkil etadi.

I BOB. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov xalq tilining bilimdoni, mohir notiq egasi ekanligi

1.1. I.A.Karimovning ijtimoiy mavzudagi asarlarida – xalq iboralari va maqollarining qo'llanilishi hamda falsafiy-tarbiyaviy ahamiyatini yoritilishi

O'zbek xalqining sevimli farzandi, o'zligimizni, tariximizni qaytishida jonbozlik ko'rsatgan haqiqiy millatsevar, mustaqilligimizning haqli ravishda asoschisi Islom Karimov 1938-yilda 30-yanvarda Samarqandda oddiy oilada tug'ildi. Ikkita mutaxassislik bo'yicha tahsil oldi. Ikki sohaning ham bilimdoniga aylandi. O'z faoliyatni 1960-yildan boshladi. Mamlakat kelajagini yaratish va uni qaramlikdan ozod etish uchun astoydil izlandi. Mustabid tuzum omonatlasha boshlayotganini his qilib o'z vaqtida amaliy faoliyatini boshlab yubordi. Buning natijasi o'laroq 1989-yilda o'zbek tiliga – davlat tili maqomi berilishi bilan boshlandi. Keyin esa 1990-yilda O'zbekistonda Prezidentlik lavozimining birinchi marta joriy etilishi bo'ldi. Bunday lavozimga esa I.A.Karimov saylandi. Nihoyat 1991-yilda eng ulug' bayramimiz Mustaqillik qabul qilindi. Butun o'zbek xalqining yana yangi tarixiga asos solindi. Davlat ishlarini amalga oshirishda inson manfaati va uning o'zi oliy qadriyatligi asosiy e'tibor markazida bo'ldi. Dastlabki yangilanishlar albatta ta'lim sohasida ro'y berdi. Chunki yangi, hali to'liq rivojlanmagan davlatni yuksak marralarga olib chiqish, uni jahonga tanishtirish uchun salohiyatli yosh kadrlar zarur edi. Va butun umri davomida ularga qanot bo'lib keldi. Davlat boshqaruvida xalq ishtirokini mustahkamladi. Xalq o'zini–o'zi boshqarsin, unga nima yaxshi-yu, nima yomon ekanligini ham o'zi his etsin deb, bajonidil xalqqa quloq tutdi. U kishi butun hayotini va o'zligini mana shu xalq va shu millat uchun bag'ishladi. I.Karimov prezidentlik lavozimida ishlagan paytlarida ham xalqni ma'naviyatli qilishdan, ularni taraqqiyot sari chorlashdan to'xtamadi. Mustaqilligimizni dastlabki paytlaridayoq xalqimiz ongini o'stirishga qaratilgan asarlar yozdi. Uning yozgan birinchi asari

1996- yilda “O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura” asari ham o‘z taraqqiyot yo‘limizni aniqlashga, milliy g‘ururimizni tiklashga xizmat qiladi.

Davrimizning barcha fanlarining nazariy va metodologik asosi bo‘lgan Prezidentimiz asarlarini o‘qiganimizda ularda xalq maqollari va hikmatlaridan o‘z fikrini, qarashi va g‘oyasining taslig‘i yoki isboti sifatida juda ko‘p o‘rnilarida foydalanganligini shohida bo‘lamiz. Shu o‘rinda alohida ta‘kidlash joizki, 2014 yil 15-16 may kunlari “O‘rta asarlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi roli va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilishida “Ajdodlarimizning bebaho merosi-abadiyatga daxldor ma‘naviy xazinadir” mazusida so‘zlagan nutqlarida ham bir necha hikmat va maqoldan iqtibos keltirganlar”

“Bilasizmi, men ba‘zan o‘ylab qolaman, dunyoda fanlar ko‘p, ilm-fanning ajoyib yutuqlarini barcha sohalarda ko‘rish mumkin. Men bunday mashaqqatli mehnatdan doimo hayratga tushaman. Bizning xalqimizda **“Ilm bilan shug‘ullanish-igna bilan quduq qazish bilan barobar”** degan ibora bor. Ana shu igna bilan quduq qaziyotganlar bor bo‘lsin! Ular qo‘lyozmalar ustida 10-20 yillab va xatto umrbod ishlayotgan insonlardir. Bunday sabr-toqat bilan mehnat qilayotgan insonlar qalbida buyuk daholar merosini butun dunyoga namoyon etish istagi shunchalik kuchliki, hech shubhasiz, bunday daholarsiz insoniyat ravnaq topa olmaydi”³.

Shu o‘rinda sobiq yurtboshimizning “O‘z tarixiga, to‘plangan tajribaga, dunyoda eng katta boylik sanalgan intellektual salohiyatga chuqur hurmat bilan yondashish har qanday davlatning moddiy va ma‘naviy taraqqiyoti asosini tashkil etadi”,- degan fikrlari bugunning hikmatli so‘zi decak mubolag‘a bo‘lmaydi.

“Shu munosabat bilan ulug‘ ispan adibi Servantesning, tarix-faoliyatimiz xazinasi, o‘tmish guvohi, bugungi kun uchun ibrat va o‘git, kelajak uchun esa ogohlantirishdir, degan so‘zlarini takrorlash o‘rinli bo‘ladi, deb o‘ylayman. Menga

³ Islom Karimovning “O‘rta asarlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi roli va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro klnferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi. “Xalq so‘zi” 16.05.2014. 1- bet.

ayniqsa "kelajak uchun ogohlantirish" degan fikr juda ma'qul bo'ldi. Nima uchun? Nega deganda, haqiqatan ham, tarixni bilmagan kishi har qadamda xatoga yo'l qo'yadi, o'z tarixi bilan faxrlanmaydigan xalq esa o'z kelajagini tassavur qilolmaydi"⁴.

El-yurtimiz o'zining ko'p asrlik tarixi davomida bunday mash'um xatarlarni necha bor ko'rgan, ularning jabrini tortgan. Shunday asoratlar tufayli tilimiz, dinimiz va ma'naviyatimiz bir paytlar qanday xavf ostida qolganini barchamiz yaxshi bilamiz. Ana shu fojiali o'tmish, bosib o'tgan mashaqqatli yo'limiz barchamizga saboq bo'lishi, bugungi voqelikni teran tahlil qilib, mavjud tahdidlarga nisbatan doimo ogoh bo'lib yashashga da'vat etishi lozim. **O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q.** Bu haqiqat kishilik tarixida ko'p bora o'z isbotini topgan.

Shuni mamnuniyat bilan qayd etish lozimki, ezgu fazilat va intilishlar xalqimizning qon-qoni va suyak-suyagiga singib ketgan. Uning tabiatiga xos bo'lgan yuksak ma'naviyat necha asrlarki bizni ne-ne balo-qazolardan, to'fon va bo'ronlardan sog'-omon asrab kelmoqda. Har qanday bosqin va istilolarga qaramasdan, har qanday og'ir va murakkab sharoitda ham ota-bobolarimiz o'zligini yo'qotmasdan, ma'naviy hayot mezonlari, odob-axloq qoidalariga amal qilib, komillik sari intilib yashagani bugun ham barchamizga ibrat bo'lib, kuch-quvvat bag'ishlab kelmoqda.

Ajdodlarimizning ruhi poklari va urf-odatlari, bizning eng yaxshi an'analarimiz qayta tiklanganda islohotlar muvaffaqiyatga erishadi. O'ta o'qimishli, ruhan bardam va jismonan baquvvat kishilargina istiqlol va taraqqiyot yo'lini bosib o'ta oladi. Sarchashmalari buyuk ajdodlarimizning tafakkurlari va muddaolaridan boshlanadigan xalqimizning ma'naviy qadriyatlari iqtisodiy o'zgartirishlarimizning mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi.

⁴ O'sha asar, 2- bet.

Demak, bizning vazifamiz, avvalambor, mana shu ma'naviyatimiz sarchashmalarini va bobokalonlarimizning boy an'alarini davom ettirishdir. Ma'naviyatimizni yaratayotganlarni: yozuvchilar, shoirlar, madaniyat va san'at ijodkorlarini, xalq talantlari va iqtidorli yoshlarni doimo qo'llab-quvvatlamog'imiz lozim.

Xalqimiz yoshlarini o'z ajdodlariga munosib voris etib tarbiyalash uchun, avvalo, ularni tarix bilan tanishtirish va kimni avlodi ekanligini, ota – bobolari kimlar bo'lganligini ko'rsatish kerak. Bu borada mustaqillikdan so'ng qilingan ishlar, ayniqsa, e'tiborga molikdir. Muhtaram Birinchi Prezidentimiz o'zining bu haqdagi qarashlarini umumlashtirib **“Tarixiy xotirasiz – kelajak yo'q”** asarini yozdi. Bu asar xalqimizning haqiqiy, yurtparvar farzandlari haqida bo'lib, ular Sobiq Sovet davlati davrida qoralangan tarixiy shaxslardir. Birgina buyuk davlatimiz asoschisi Amir Temurni **“qonxo'r”**, **“jallod”** sifatida ta'riflab, uni o'rganishni ta'qiqlab qo'yishdi. Aslida esa Amir Temur butun umri davomida **“Kuch – adolatda”** degan mezonga amal qilib, yashagan buyuk ajdodimiz hisoblanadi. Albatta, adolatni birinchi o'ringa qo'ygan inson hayoti va faoliyatini o'rganishga ruxsat berish bu o'z mustamlaka davlatidan ayrilishning dastlabki ko'rinishi bo'lardi. Ular bunga ruxsat berolmasdi, albatta. Shu sababli hali ham xalqimiz orasida shunday fikrlovchi insonlar yo'q emas. Lekin o'zini ozod va erkin ko'rishni istovchi har bir millat o'tmishini bilishga intilishi bu tabiiy holdir.

Shunday og'ir sharoitda tarix sahnasiga jadidlar deya ataluvchi ma'rifatparvarlar yuzaga chiqdilar. Ular millatning asl holatiga to'g'ri baho bera olgan mustaqillik kurashchilaridir. Jadidlar bu yo'lda o'z molini ham hatto jonini ham ayamadilar. **“Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch”** asarida Mahmudxo'ja Behbudiyning quyidagi fikrlari keltirib o'tiladi: **“Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lur”**. Ha darhaqiqat, o'z ilmi fani rivoji yoshlarini salohiyati yuksak bo'lmagan davlat nafaqat su davrda balki hozir ham boshqa ta'sir kuchlar soyasiga soyalab o'z Vatanini sotmoqda. Bunday ayanchli ahvolga

tushmaslik uchun esa, avvalo, o'qish va savodxonlik darajasiga ega bo'lish, yaxshi tarbiya ko'rish, jahon yoshlari bilan iln fan va taraqqiyotda bemalol bahslasha oladigan haqiqiy vatanparvar yoshlarni tarbiyalash zarur va shartdir.

Millatlar va elatlar o'rtasidagi ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy aloqalarning o'sishi oldin faqat bir elat yoki millat uchun makon bo'lgan hududni shu o'lkada yashayotgan barcha elat, millatlar uchun Vatanga aylantiradi. Hozirgi kunda respublikamizda yashayotgan 130 dan ortiq millat va elatlarning mustaqil O'zbekistonni o'z Vatani deb bilish ham shunday jarayonlar va o'zgarishlar natijasidir. Shu boisdan ham, Vatan tushunchasi nihoyatda keng bo'lib, u bir joy, zamin, o'lkada istiqomat qilayotgan fuqarolarni, ularning millatidan qat'i nazar, birlashtiruvchi ijtimoiy tuyg'udir. Ya'ni, xalqimiz ta'biri bilan aytganda, "Tug'ilgan yering - vataning, vataning – nomusing". Bundan kelib chiqadiki, barchamiz yashayotgan shu Vatanni, uning ravnaqini yanada yuksakroqqa ko'tarishdek mas'uliyatli vazifani teran anglamog'imiz zarur.

Tashqi muhit nuqtai nazaridan Vatan kishi yoki avlodlar tug'ilib o'sgan va kamol topgan joy, zamin, o'lkadir. "Vatan ostonadan boshlanadi", deb bejiz aytmaydi xalqimiz. Biroq shaxs ulg'aygan sayin, uning Vatan haqidagi tushunchasi ham tobora kengayib boradi. Natijada tili, e'tiqodi, urf-odatleri va milliy xususiyatlari bir bo'lgan avlodlar yashayotgan jug'rofiy muhit Vatanni ifoda etadi. Ichki tushuncha va kechinmalarni nazarda tutib, fikr yuritadigan bo'lsak, Vatan tarixiy rivojlanish jarayonida paydo bo'lib, tashqi muhit hamda davrlar ta'sirida shakllangan va o'zgarib kelgan ijtimoiy-ruhiy tushunchadir.

Vatan ravnaqi yo'lida halol xizmat qilish xalqimizning, binobarin, har birimizning porloq kelajagimizni yaratish demakdir. Zero, ota-bobolarimizdan meros qolgan bu zaminni sevish, ardoqlash, xalqning urf-odatleri, qadriyatlerini saqlash, el-yurt ravnaqi uchun chin dildan mehnat qilish har birimizning muqaddas burchimizdir. Buning uchun esa tinmay izlanish, mehnat qilish, kerak bo'lsa, zahmat chekish zarur bo'ladi. Shu ma'noda, har bir ongli fuqaro o'z sa'y-harakatlerini bag'rikeng xalqimizning og'irini yengil qilishga, uni yanada yaxshi kunlarga olib chiqishga

qaratmog‘i lozim. Chunki bunday xalqning baxt-saodati, farovonligi yo‘lida qilingan mehnat, zahmat hech qachon zoye ketmaydi.

O‘zbek xalq maqollarida Vatan onadek muqaddas ekani, uning har bir qarich yeri uchun jon fido qilish kerakligi uqtiriladi: “Ona yurtning - oltin beshiging”, “Bulbul chamanni sevar, odam – Vatanni”, “Vatan uchun o‘lmoq ham sharaf” va hokazo.

Agar ona Vatan og‘ir kunlarni boshidan kechirayotgan bo‘lsa, har bir vatanparvar, mard inson bunday kulfatli kunlarda unga mador bo‘lishi lozim: “Vatanga - falokat, o‘zingga – halokat”, “Vatanning vayronasi - umrning g‘amxonasi”, “Ona yurtning omon bo‘lsa, rangi ro‘ying somon bo‘lmas”, “Yurt qo‘risang - o‘zarsan, qo‘rimasang – to‘zarsan”. Vatanga sadoqat va ona yerga muhabbat ajralmas tuyg‘ulardir: “Yerga sevgi - Vatanga sevgi”, “Vatan tuprog‘i - g‘alaba garovi”, “El boshiga tushgani - er boshiga tushgani”. Vatanparvarlik tuyg‘usi mamlakat va xalq tinchligi, xavfsizligi bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. “Vatanni sotgan er bo‘lmas”, “Yoridan ayrilgan yetti yil yig‘lar, yurtidan ayrilgan o‘lguncha yig‘lar”, “Ona yurtning omon bo‘lsa, rangi ro‘ying somon bo‘lmas” kabi maqollarda har bir inson vatanidan ayri holda yashay olmasligi, vatan ona kabi aziz va qimmatli ekani aks etgan.

O‘zini haqiqiy inson deb hisoblaydigan har bir kishi o‘z hayotini jonajon xalqining ravnaqiga bag‘ishlashi, Vatanning, mamlakatning daxlsizligi, ozodligi va mustaqilligi uchun kurashmog‘i, kerak bo‘lsa, bu yo‘lda jonini ham ayamasi lozim.

Mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirish uchun, avvalo, mintaqamizda yashayotgan xalqlar va davlatlarning an’anaviy do‘stligiga, hamjihatligiga tahdid solayotgan xavf-xatarlarni bartaraf etish uchun qo‘shni mamlakatlar bilan hamkorlikda zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalari sirasiga kiradi. “Birlashgan daryo bo‘lar, tarqalgan irmoq bo‘lar”, deganlaridek, Markaziy Osiyodagi barqarorlik mintaqa davlatlarining yakdilligini talab etadi.

Tinchlik va osoyishtalikni saqlash, tinchlik uchun kurash olib borish haqida xalqimiz tomonidan bir qator maqollar yaratilganki, ular hech bir davrda o‘zining

ahamiyatini yo‘qotmagan: “Tug‘ilgan yerdan ko‘ngil uzilmas, yurt qo‘riganning yurti buzilmas”, “Tinch elning bog‘i gullar”, “Tinchlik - baxt, sog‘lik – taxt”, “Tinchlik - farovonlik yo‘ldoshi”, “Urush - ofat, tinchlik – farog‘at”, “Yurti tinchning - eli tinch”, “Qo‘shning tinch - sen tinch”, “Tinchlik bilan el ko‘karar, yomg‘ir bilan yer” kabi xakq maqollarida ogoh va hushyor bo‘lish, Vatanni, xalqni himoya qilishga tayyor turish, yaratilgan va qo‘lga kiritilgan ma‘naviy va moddiy boyliklarni ko‘z qorachig‘idek asrash tuyg‘ulari o‘z ifodasini topgan.

“O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida ham garchi u ijtimoiy-siyosiy tahliliy asar bo‘lsa-da 5ta maqoli va hikmatli so‘zlari qo‘llanilganki, bu aytiladigan fikrning maqsadini to‘laqonli ochib berishga xizmat qilgan.

1. O‘ziga xon - o‘ziga bek. (87).

-Jinoiy yoki ko‘p hollarda "xufyona" deb atalayotgan, iqtisodiyot voqelik sifatida quyidagicha sharoitda o‘ydi va rivojlandi: u ishlab chiqarish sohasidagi qonunlarni qo‘pol ravishda buzib, o‘ziga xon - o‘ziga bek bo‘lib olgan edi. Chunki unga eng yaqin raqobatchi bo‘lgan davlatning iqtisodiy tuzilmalari qotib qolgan ko‘rsatmalar va taqiqlar bilan cheklab qo‘yilgan edi. Sovet davrida bu hodisa haddan tashqari kuchaydi, xunuk holga keldi va O‘zbekistonga meros bo‘lib qoldi.

2. “Pul hokimiyatga intiladi”. (90).

-"pul hokimiyatga intiladi", degan bir ibora bor. Lekin bu pul jinoiy yo‘l bilan topilgan bo‘lsa-yu, uning egalari jamiyatning hokimiyat tuzilmalariga chiqib olsalar, ular qanday usullar bilan boshqarishlarini tasavvur qilish qiyin emas.

3. “Faqat bizga yaxshi bo‘lsa, ishimiz bitsa - bo‘lgani”. (91).

-... nopok yo‘l bilan boylik orttirganlar jazodan qutulib qolish va o‘zlarining jinoiy sarmoyalarini himoya qilish uchun har qanday xatti-harakatlarga tayyor turishlarini yaxshi bilib olish lozim. Bunday kimsalar adolatli jazodan qo‘rqib, hamma ishni qilishga, hatto vaziyatni beqarorlashtirishga, ommaviy tartibsizliklarni keltirib chiqarishga shay turadilar. Bunday paytda ehtirolarni junbushga keltirish, olomonni qo‘zg‘atish va uning orqasiga yashirinib olishdan qulayi yo‘q. Bunday odamlarning

“Faqat bizga yaxshi bo‘lsa, ishimiz bitsa – bo‘lgani” qabilidagi maslagi xudbinlikning, hamyurtlariga nisbatan surbetlarcha loqaydlikning yaqqol ko‘rinishidir.

4. “Qurishdan ko‘ra buzish oson”. (182).

-Hammaga ma‘lumki, qurishdan ko‘ra buzish osonroq. Bunda "islohotchi", "demokrat" degan siyosiy obro‘ orttirish osonroq. "Hammasini tag-tubigacha buzamiz, shundan keyin esa..." degan mashhur shiorni odat yuzasidan "demokratiya"ning ko‘plab yetakchilari ko‘tarib chiqqandilar. Lekin, afsuski, ularning ko‘pchiligi bu mashhur shiorning birinchi qisminigina amalga oshirishga muvaffaq bo‘ldilar.

5. “Ortiqcha chiranish belni sindiradi”. (190).

-Donishmand xalq o‘git berganidek, ortiqcha chiranish belni sindiradi, ya‘ni hamma muammolarni bir yo‘la hal qilib bo‘lmaydi. Muammolarni, ahamiyati va ustunligini hisobga olib ketma-ket va bosqichma-bosqich hal qilish muhim.

Shu bilan birga I.Karimov o‘z asarida Amir Temurning dono so‘zidan ham ihtibos keltirgan:

Qonunning ustunligi bizning islohotlar modelimizdagi yetakchi tamoyildir. U huquqiy davlatning asosiy mezonlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Buyuk bobomiz Amir Temur “Qonun hukmron bo‘lgan joyda erkinlik ham bo‘ladi”⁵, - degan dono so‘zlarni oltin harflar bilan yozib qo‘yishga amr bergan edi.

Sobiq Yurtboshimiz bugungi O‘zbekiston yoshlari tarbiyasi to‘g‘risida ham to‘xtalib, “Biz yoshlarimizni boshqalarning qo‘liga berib qo‘ymaymiz, ularni o‘zimiz tarbiya qilamiz” degan edi. Yoshlar tarbiyasi uchun doimo kattalar, ota-onalar mas‘ul bo‘lgan. Xalq maqollarida ham tarbiya masalasiga doimiy e‘tibor qaratilgan. “To‘g‘ri bola o‘stirsang, xalq ichida sher bo‘lar, egri bola o‘stirsang, ikki ko‘zi ko‘r bo‘lar” yoki “Tarbiya taqani to‘g‘rilaydi”, deb ta‘kidlaydi dono xalqimiz. Tarbiya jarayoni

⁵. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O‘zbekiston, 1997. 280 bet.

bobolar o‘giti, milliy an’analar, hayotiy tajribalar, hikmatli so‘z va maqollar orqali amalga oshiriladi.

Islom Karimov Ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi XIV sessiyasida so‘zlagan nutqida qayd etganidek, ularning qalbi va ongiga, kundalik turmush tarziga “ota - bobolarimizdan qolgan bebaho meros, milliy urf-odat va an’analar”ning mazmun-mohiyatini tushuntirish va singdira borishdan iboratdir. Tabiiyki, bu jarayonda xalqimizning ma’naviy an’alariga, hikmatli so‘z va maqollarining insonparvarlik mohiyatiga e’tibor qaratish alohida ahamiyat kasb etadi. Jamiyatning barcha qatlamlarini, ayniqsa, yoshlar va ularning eng ilg‘or qatlami bo‘lgan talaba yoshlarni yuksak ma’naviyat va ma’rifat sohibi qilib tarbiyalashda ming yillar davomida saqlanib kelayotgan xalq maqollarining o‘rni kattadir. Xalq asrlar mobaynida to‘plagan hayotiy tajribasini turli vositalar yordamida kelajak avlodlarga meros qilib qoldiradi. Maqollar ana shunday bebaho meros namunasi hisoblanadi. Ular zamonlar osha, xalq donishmandligining muhim manbai sifatida, og‘izdan-og‘izga o‘tib, sayqallanib kelgan. Maqollar xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlari singari, har bir xalqning milliy adabiy va madaniy boyligi hisoblanadi. Ular xalqning milliy-madaniy xususiyatlari va uning qirralarini, dunyoqarashi, axloqiy me’yor va prinsiplarini, an’ana va qadriyatlarini, millatning ruhiy holatini to‘liq ifodalaydi hamda jamiyatning, ayniqsa, ertangi kun egasi bo‘lgan yoshlar ongini o‘stirishda muhim rol o‘ynaydi.

Buyk dahomiz: “Odamzod bor ekan, millat bor ekan, shu millatni ifoda qiladigan, asrlar mobaynida qandaydir muqaddas darajaga ko‘tarilib qolgan alomat - xususiyatlar ham u bilan birga yashaydi”⁶, - deb ta’kidlagan edi. Darhaqiqat, o‘zbek xalq maqollarida insoniylik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik va ishyoqmaslik, halollik va tekinox‘rlik, to‘g‘rilik va egrilik, yaxshilik va yomonlik, adolat, insof va insofsizlik, do‘stlik va dushmanlik, botirlik va qo‘rqoqlik, ilmlilik va ilmsizlik, hushyorlik va ehtiyotsizlik g‘oyalari o‘ziga xos tarzda aksini topgan bo‘lib, ular o‘rtasidagi dialektik

⁶ Karimov I.A. Hayotimizning, taraqqiyotimizning huquqiy asosi. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2002 yil 6 dekabr.

munosabatdan kelib chiqib, yosh avlodni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashga doimiy e'tibor qaratishga bo'lgan abadiy ishora deb o'ylaymiz.

Xususan, 2015 yilda nashr ettirilgan "Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish- eng oliy saodatdir" nomli kitobda ham bir necha hikmat va maqollardan iqtibos keltirilgan. Kitobning "Mustaqillik-tog'dek tayanchimiz, qudratli zaminimizdir" nomli bo'limida Vatanimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, mustaqillikni mustahkamlash borasidagi fikrlarida bir necha maqol va hikmatli so'zlardan muqoyasa keltirilgan. Ya'ni, "Xalqimizda "Yetti o'lcha-bir kes" degan maqol bor. Bu bir ishga qo'l urishdan avval oqibatini yaxshilab o'ylab ko'rish kerak, degani. Agarki, 90- yillarda biz ham shoshma-shosharlik bilan ish tutganimizda hozir nima bo'lardi?.." (73-bet). "Biz... O'zbekistonimiz uchun yakkayu yagona to'g'ri, ya'ni tadrijiy, bosqichma-bosqich rivojlanish yo'lini tanlab olganimiz, uzoqni ko'zlab, yetti o'lchab, bir kesgan holda, puxta o'ylangan vazmin siyosat olib borganimizni bugun hayotning o'zi qayta-qayta isbotlab bermoqda (69-bet). Yoki "Zamonaviy rahbar doimo oldinga intilib yashashi kerak" nomli bo'limda rahbarlar oldiga katta mas'uliyat qo'yilgan. Bu mas'uliyatning mohiyatini chuqur anglash uchun yana xalq maqollariga murojaat qilingan. "Xalqimizda "Odamning kimligini bilmoqchi bo'lsang, amal berib ko'r" degan maqol bor. Amal ko'rmagan odam tasodifan mansabga o'tirib qolsa, o'z vazifasini tushunib olish uchun unga, birinchidan, vaqt kerak, ikkinchidan, u lavozimni egallaganidan so'ng o'ziga o'xshagan odamlarni atrofiga to'plab oladi, keyin ularni almashtirishni o'zi juda azob. Shuning uchun rahbarni saylayotgan paytda yetti marta o'lchab, bir marta kesish kerak" (208-bet). Yana bir mavzuda bu maqol quyidagicha keltiriladi: "Mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab bizga mablag' berishga tayyor bo'lgan mamlakatlar ko'p bo'ldi. Lekin biz bu masalada hech qachon shoshilmadik, yetti o'lchab, bir kesdik" (152-bet). Yuqorida keltirilgan iqtiboslar matniga e'tibor qaratsak, o'zbek xalqining "Yetti o'lchab, bir kes" maqoli to'rt marta takrorlangan. Har bir takrorda maqsadni chuqur anglash, intellektuallikni oshirish, islohotlarga yondashuvni modernizatsiyalash uchun xizmat qilish nazarda tutilgan. Bu misollar zamirida "Inson manfaati har narsadan

ulug‘” ekanligi ifodalangan. Buyuk va ezgu ishlarni amalga oshirishda, eng avvalo, odamlarning ishonchini qozonish lozimligi, ular bilan kengashish, ularni tinglash foydadan xoli emasligi ta’kidlanadi. Ayni chog‘da xalq bu maqollarda aytilgan fikrlarga amal qilmagan holda ish tutilganidan keyingi holatni ham e’tibordan chetda qoldirmagan. Shu bois, dono xalqimiz “Keng to‘n to‘zimaydi, kengashli ish buzilmaydi” maqolini yaratganki, yuqoridagi misollarda keltirilgan maqollarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan deyish mumkin. Bu esa folklorda bir janrning o‘zaro diffuziyalashish jarayonini belgilaydi.

1. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarini tadqiq etganimizda asarda 8 ta maqol va matallardan foydalanilganligi ma’lum bo‘ldi. Ular:

2. Yo‘lini topibdimi, qandini ursin. (21)⁷

3. Uzumini yeng-u bog‘ini surishtirmang. (21)

4. Agarki e’tibor bersak, tilimizda halollik va nopoklik haqidagi ibratli hikmatlar bilan birga, “Yo‘lini topdimi, qandini ursin”, “Uzumini yeng-u bog‘ini surishtirmang” degan maqollar ham borligidan ko‘z yumib bo‘lmaydi. Albatta, bunday maqol-matallar bejiz paydo bo‘lmagan, ular ham ma’lum bir haqiqatning ifodasi. Binobarin, biz hayotning ma’no-mazmunini shunday tushunib, shu asosda yashashga intiladigan kishilar ham borligini inkor etolmaymiz.

5. Bilagi zo‘r birni, bilimi zo‘r mingni yiqar. (45)

Amir Temur bobomizning bunday chuqur ma’noli hikmatlari xalqimizda qadimdan mavjud bo‘lgan “Bilagi zo‘r birni, bilimi zo‘r mingni yiqar” degan maqolga g‘oyat hamohang bo‘lib, inonni doimo aql-idrok, adolat va yuksak ma’naiyat asosida yashashga da’vat etishi bilan e’tiborlidir.

Oqqan daryo oqaveradi. (49)

Xalqimizning asl tabiatida mavjud bo‘lgan ana shunday ilmiy-ma’naviy salohiyat va fazilatlar haqida gapirar ekanmiz, “Oqqan daryo oqaveradi” degan naql beixtiyor

⁷ Izoh: Qavs ichidagi raqamlar “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarini sahifalarini bildiradi.

yodimizga tushadi. Chindan ham, tariximizning qaysi davrini olmaylik, yurtimizda ilmu ma'rifat va yuksak ma'naviyatga intilish hech qachon to'xtamaganini, xalqimiz dahosining o'lmas timsoli sifatida eng og'ir va murakkab davrlarda ham yaqqol namoyon bo'lib kelganini ko'rishimiz mumkin.

3. Qush uyasida ko'rganini qiladi. (53)

Bolaning ongi asosan 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo'lsak, aynan ana shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta'sirida ma'naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshlaydi. Xalqimizning "Qush uyasida ko'rganini qiladi", degan dono maqoli, o'ylaymanki, mana shu azaliy haqiqatni yaqqol aks ettiradi.

4. Mahalla-ham ota, ham ona. (59)

Ma'naviy hayotimizni yuksaltirish haqida gapirganda, mahallaning roli va ta'siri xususida to'xtalish albatta o'rinlidir. Ma'lumki, azaldan o'zbek mahallalari chinakam milliy qadriyatlar maskani bo'lib keladi. O'zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan xabar olish, yetim-yesirlarning boshini silash, to'y-tomosh, hashar va ma'rakalarni ko'pchilik bilan bamaslahat o'tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo'lish kabi xalqimizga xos urf-odat va an'analar avvalambor mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan. Xalqimizga xos o'zini o'zi boshqa(58)rish tizimining bu noyob usuli qadim-qadimdan odamlarning nafaqat tilida, balki dilida, butun hayotida chuqur joy egallagani bejiz emas. Biz "Mahalla-ham ota, ham ona" degan hikmatli naqlni ana shu hayotii haqiqatning ifodasi sifatida qabul qilamiz.

5. Uyat o'limdan qattiq. (118)

Ota-bobolarimizning ongu tafakkurida asrlar, ming yillar davomida shakllanib, sayqal topgan or-nomus, uyat va andisha, sharmu hayo, ibo va iffat kabi yuksak axloqiy tuyg'u va tushunchalar bu kodeksning asosiy ma'no-mazmunini tashkil etadi, desak, o'ylaymanki, xato qilmagan bo'lamiz.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, uyat-o'limdan qattiq, degan gaplar xalqimiz tilida o'z-o'zidan paydo bo'lmagan, aksincha, bunday iboralar el-yurtimizga mansub ezgu va go'zal axloqiy qadriyatlarning asl mazmunini ifoda etadi.

6. Karvon bexatar bo‘lmas. (172)

Chunki xalq-bamisoli ulug‘ va sharafli yo‘ldan ilgari lab borayotgan ulkan karvon. Uni yo‘ldan chalg‘itishga urinuvchilar, payt poylab orqasidan hamla qiluvchilar hamisha bo‘lgan, bundan keyin ham bo‘lishi mumkin. Karvon bexatar bo‘lmas, degan gap bejiz aytilmagan. Ammo xalq karvonini hech qanday kuch ortga qaytarolmaydi. Nega deganda, xalqning qalbida ne-ne avlodlardan meros yengilmas kuch–manaviyat bor.

Bundan tashqari bir necha boshqa hikmatlar ham ushbu asarda qo‘llanilgan. Ya‘ni, Hadislar, hikmatli xalqchil iboralar:

“Bu dunyoni deb u dunyoni, oxiratni deb bu dunyoni unutmang”. (95).

“Birovga hasad qilishdan saqlaning, chunki olov o‘tinni qanday kuydirib tugatsa, hasad ham savob ishlaringizni xuddi shunday kuydirib tugatadi” (120).

“Diling Ollohda, qo‘ling mehnatda bo‘lsin” (40).

“Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” (32).

“Kuchli davlatdan-kuchli jamiyat sari” (59).

Ta‘limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta‘limdan ajratib bo‘lmaydi. (61).

“Fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya” (119).

“Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch” (128).

Kuchli huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyati demakdir (108).

Bir tanu bir jon bo‘lib yashash (122).

Kuch adolatdadur (154).

Zotan, maqollar, xalqchil iboralar ko‘p asrlik hayotiy tajribalar, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida qat‘iy qutbiylikda ifodalar ekan, ularda har bir so‘zning ma‘no xilma-xilligi, iboralarning turg‘unligi, shakliy barqarorlik ustunlik qiladi. Ammo qo‘llanish o‘rniga qarab ularning ma‘no doirasi doimiy ravishda kengayib boradi. Binobarin, xalq maqollarida ana shunday chuqur falsafiy mazmunga ega bo‘lgan fikrning o‘rin olishi tabiiydir.

1.2. I.A.Karimov nutqiy birliklaridagi fikrlarning xalqchilligi

Har qanday mavzudagi nutq tarkibida umummilliy qadriyatlar ishorasi nazardan chetda qolmasa, uning mazmun-mohiyati inson qalbidan teran o‘rin egallaydi. “Tarixda shunday insonlar bo‘ladiki, ularning qadr-qimmati umuminsoniy qadriyatlar bilan o‘lchanadi”⁸ - deyilgan fikr nechog‘li haqiqatdir. Fanda ma‘lumki, hokimiyat egalari qadimdan davlat boshqaruvida notiqlik san‘ati, qobiliyatiga alohida e‘tibor bilan qaraganlar. Shu o‘rinda R.Dekartning quyidagi fikrlarini keltirib o‘tmoqchimiz: “So‘zlarning ma‘nolarini tushuntirib bering, shunda siz insoniyat olamini anglashilmovchiliklarining yarmidan xalos qilgan bo‘lasiz!” Darhaqiqat, har bir so‘zning ma‘nosini chuqur bilish, tushunish va tushuntira olish elni o‘z ortidan ergashtirish demakdir. Elni purma‘no so‘zlari bilan mehrini qozongan, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarga oid masalalarni xalqona tilda yetkazib bera olgan va o‘z ortidan ergashtirishga erishgan Buyuk davlat arbobi, mohir notiq Islom Karimov butun umri davomida umuminsoniy qadriyatlarga tayanib ulkan ishlarni amalga oshirdi. Milliy an‘ana va marosim, urf-odat, rasm-rusumlarimizni o‘zida jamlagan xalq og‘zaki ijodiga alohida e‘tibor qaratishlari, o‘z nutqlarida og‘zaki ijod namunalaridan o‘rinli foydalanishlari shu sohaning bilimdoni ekanligidan dalolatdir.

“Kishi tilini bilmaydigan uning dilini ham bilmaydi”⁹ - binobarin, o‘z ona tilini bilmagan odam o‘zining shajarasini, o‘zining ildizini bilmaydigan, kelajagi yo‘q odam, kishi tilini bilmaydigan uning dilini ham bilmaydi,- deb o‘z chiqishlarida baralla aytgan sobiq dono yurtboshimiz xalqining dilidagini ko‘zidan uqib, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy mavzudagi nutqlaridagi kechagi fikrlar o‘z davrining va bugunning nafaqat shiori, balki purhikmat so‘ziga aylandi,-desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shuni alohida qayd qilish zarurki, millatning, mamlakatning ravnaqi, uning porloq kelajagi jamiyatimiz a‘zolarining faolligiga, jonkuyarligiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Shuning uchun ham Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o‘zining ko‘plab

⁸. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: O‘zbekiston,2012. 252-bet.

⁹. O‘sha asar. 69-bet

chiqishlarida xalqimizning ma'naviy dunyosini boyitishga juda katta e'tibor beradi. Sobiq va sodiq Yurtboshimiz: "Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qila digan, kechagi va ertangi kun o'rtasida o'ziga xos ko'p rik bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman"¹⁰, - degan edi.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, agar milliy ongimiz to'xtovsiz yuksalib bormasa, mustaqilligimizning, davlatimizning ma'naviy zamini mustahkam bo'lmaydi. Chunki milliy ong mustaqillikka yo'nalish beradi, xalqni yakdil, hamjihat qiladi. Mamlakatning ravnaqi iqtisodiy zamin bilan bir qatorda fuqarolarning birligini ham talab qiladi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan beri o'zining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ilmiy tarqqiyotida yuksak natijalarni qo'lga kiritmokka. Hech shubhasiz, bu jarayon mamlakatimiz tinchligi, osoyishtaligi bilan bevosita bog'liq. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov 2000- yil 22- yanvarda Oliy Majlisning birinchi sessiyasida respublikamizning yaqin yillardagi muhim vazifalariga to'xtalib shunday degan edi: "Demokratik va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ma'naviy taraqqiyotga erishish, shuningdek, O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligini kuchaytirishning asosiy sharti va garovi mamlakatimiz xavfsizligini ta'minlash, jamiyatimizda tinchlik, barqarorlik, millatlar va fuqarolar o'rtasida totuvlikni saqlash va ko'z qorachig'iday asrashdir. Bu haqiqatni barchamiz anglab olishimiz kerak"¹¹. Bu fikrlarning o'ta muhim jihati shundaki, mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lida avvalboshdanoq asosiy ustuvor yo'nalishlarga aylangan masalalar- tinchlik va barqarorlikni saqlash, millatlararo hamjihatlikni asrash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, iqtisodiyotni tubdan isloh etish, milliy armiyani shakllantirish, sud-huquq tizimini yangi asosda barpo etish, inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash,

¹⁰. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. -T.: O'zbekiston, 1997. 11-bet.

¹¹ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. -T.: O'zbekiston, 2000. 35-bet.

ijtimoiy-siyosiy hayotni erkinlashtirish, aholi salomatligi, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat va sport jabhalariga e'tibor qaratish, jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallash kabi ko'pdan-ko'p dolzarb vazifalar mustaqilligimizning poydevori qo'yilayotgan o'sha davrda yurtboshimizning chiqishlarida har tomonlama o'z ifodasini topa boshlagan edi.

Yangi jamiyatimiz asoschisi, Birinchi Prezidentimiz xalqning ishonchi va mehri ezgu ishlarni amalga oshirishda kuch-quvvat bag'ishlashini har bir nutq va ma'ruzalarida izohlab o'tganlarki, ularni hikmatli so'z sifatida o'zbek xalqining qalbidan joy olgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Ya'ni, "...Inson uchun xalqning ishonchi, mehru muhabbatiga sazovor bo'lishdan ortiq baxt yo'q (Vatan va xalq mangu qoladi, 13-bet). "Ishonch odamni ezgu yo'lga boshlaydi, qanot beradi, kerak bo'lsa, mislsiz kuch-g'ayrat bag'ishlaydi"¹², "Odamlarning ishonchi va e'tiboridan mahrum bo'lish esa, har qanday hokimiyat uchun halokatdir" ("O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida, 129-bet) degan so'zlarida hikmat mujassamligi ko'zga tashlanadi.

Xalq og'zaki ijodida ham davlat, jamoa rahbarining donoligi uning qanchalik xalq turmushi va orzusiga yaqinligi bilan o'lchanishi xalqona tasvirlangan. Zero, Alisher Navoiy ham

Erursen shoh-agar ogohsen, sen,

Agar ogohsen, sen – shohsen, sen-

deb zukko rahbarning xalqi, jamoasi dilida kechayotgan botiniy jarayonlardan ogoh bo'lib, adolatli ish olib borishini ta'kidlaydi.

Bir so'z bilan aytganda, bugungi kunda "Taraqqiyotning o'zbek modeli" deb nom olgan rivojlanish yo'limizning asosiy prinsiplari, umummilliy shiorga aylanib ketgan **«O'zbekiston- kelajagi buyuk davlat»**, **«Mustaqillik - bu avvalo huquqdir»**, **«Yangi uy qurmasdan turib, eskisini buzmand»**, **«Islohot - islohot uchun emas, avvalo inson uchun»**, **«O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram**

¹². T.Mahmudov. Mustaqillik va ma'naviyat (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov asarlari asosida) –T: 2001. 92-bet.

bo‘lmaydi», «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin», "Bu aziz Vatan – barchamizniki". Uning baxt-saodati, yorug‘ istiqboli, farovon kelajagi uchun yashash, kurashish, kerak bo‘lsa jonni fido qilish shu muqaddas zaminda yashayotgan har bir inson uchun baxtdir”, “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir”, “Inson- jamiyatga, jamiyat - insonga hamnafas”, "O‘z uyingni o‘zing asra!" va "Tinchlik uchun kurashmoq kerak", “Taraqqiyot taqdirini ma’naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Aqliy zakovat va ruhiy ma’naviy salohiyat - ma’rifatli insonning ikki qanotidir”, “Til elni birlashtiradi” kabi mashhur iboralar sokin kabinetlarda emas, aksincha, ana shunday shiddatli kurashlar, tinimsiz bahs va munozaralar, achchiq hayotiy tajribalarda tug‘ilganini har bir O‘zbekiston fuqarosu chuqur anglab turibdi.

Bu shiorlar bugunning hikmatli so‘zlari bo‘lib, hayotimizning qonuni, har bir kishining turmush farovonligini oshirishda eng muhim shartga aylanishi kerak.

Xalqimiz katta ehtirom bilan qaraydigan fransuz yozuvchisi Viktor Gyugoning: "Butun dunyoda tinchlik g‘oyasi – barcha millatlar mulkidir. U eng yuksak baxt-saodat sifatida tinchlikni talab qiladi", degan so‘zlari ko‘nglimizga yaqin. Buyuk insonparvar yozuvchining bu so‘zlari o‘zbek xalqining mataliga hamohang; "Elga el qo‘shilsa, farovonlik bo‘ladi, eldan el ajralsa - muhtojlik bo‘ladi", deydi xalqimiz. Buyuk tarix va hozirgi zamonning uzviy bog‘liqligi, bitmas- tunganmas aql-ziyo va ma’naviy salohiyat hozirgi Fransiyani jahondagi qudratli sanoat hamda ilm-fanga ega bo‘lgan yirik va nufuzli davlatlardan biriga, istiqboli porloq mamlakatga aylantirdi.

Dunyoning ko‘plab mintaqalarida bugun davom etayotgan qaramaqarshiliklar, qurolli to‘qnashuvlar, qonli fojialar, yon-atrofigimizdagi notinch ahvol har birimizdan doimo sezgir va ogoh bo‘lib yashashimizni talab qiladi. Qo‘shni Afg‘onistonda bundan 30-yil muqaddam boshlangan notinchlikning hali-beri oxiri ko‘rinmayapti. Bu nafaqat O‘zbekiston uchun, xalqimiz uchun, umuman mintaqamizda yashayotgan barcha odamlar uchun katta xavf-xatardir. O‘z yurti, oilasi, farzandlarining kelajagini o‘ylaydigan har bir insonni bu tashvishga solishi tabiiy. Xalqimizda “Qo‘shning tinch – sen tinch” degan maqol bejizga aytilmagan, deydi Islom Karimov.

“Biz yaxshi tushunamiz - bugun yangi hayot, yangi jamiyat barpo etish yo‘lida qo‘lga kiritayotgan yutuqlarimizni, amalga oshirayotgan ishlarimizni ko‘ra olmaydigan, yurtimizga ko‘z olaytirayotgan ma‘lum kuchlar o‘z qabih va nopok niyatlaridan hali ham qaytgan emas. Shuning uchun ham xalqimizning orzu-intilishlarini o‘zida mujassam etgan, bugun yurtimizda shior bo‘lib qolgan **"O‘z uyingni o‘zing asra!"** va **"Tinchlik uchun kurashmoq kerak"** degan harakatlarimizni yanada kuchaytirishimiz, doimo ogoh bo‘lishimiz kerak. Shuni katta mamnuniyat bilan ta’kidlashimiz zarurki, jahon hamjamiyati xalqaro terrorizmga - bu jirkanch balo-qazoga qarshi e‘lon qilgan kurashda davlatimiz va jamiyatimiz ham qat’iy bel bog‘laganini dunyo maydonida bugun ko‘pchilik tan olmoqda va O‘zbekistonimizga hurmat-e’tibor bilan qaramoqda.”

Xalqimiz yoshlarini o‘z ajdodlariga munosib voris etib tarbiyalash uchun, avvalo, ularni tarix bilan tanishtirish va kimni avlodi ekanligini, ota – bobolari kimlar bo‘lganligini ko‘rsatish kerak. Bu borada mustaqillikdan so‘ng qilingan ishlar, ayniqsa, e’tiborga molikdir.

Muhtaram Birinchi Prezidentimiz o‘zining bu haqdagi qarashlarini umumlashtirib, **“Tarixiy xotirasiz – kelajak yo‘q”** asarini yozdi. Bu asar xalqimizning haqiqiy, yurtparvar farzandlari haqida bo‘lib, ular Sobiq Sovet davlati davrida qoralangan tarixiy shaxslardir. Birgina buyuk davlatimiz asoschisi Amir Temurni “qonxo‘r”, “jallod” sifatida ta’riflab, uni o‘rganishni ta’qiqlab qo‘yishdi. Aslida esa, Amir Temur butun umri davomida “Kuch – adolatda” degan mezonga amal qilib, yashagan buyuk ajdodimiz hisoblanadi. Shunga javoban buyuk dahomiz Islom Karimov “Kuch – bilim va tafakkurda” shiori bilan uyg‘unlashtirib, bilim va tafakkuri yetarli insonda adolat mezoni ustuvor bo‘lishini ta’kidlaydi. Shu bilan birga Birinchi Prezidentimiz o‘z asarida Amir Temurning dona so‘zidan ham ihtibos keltirgan: “Qonun hukmron bo‘lgan joyda erkinlik ham bo‘ladi” degan dono so‘zlarni oltin harflar bilan yozib qo‘yishga amr bergan edi. Qonunning ustunligi bizning islohotlar modelimizdagi yetakchi tamoyildir. U huquqiy davlatning asosiy mezonlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

“Odamlarning ishonchi va e’tiboridan mahrum bo‘lish esa, har qanday hokimiyat uchun halokatdir”, “Tarixda shunday insonlar bo‘ladiki, ularning qadr-qimmatini umuminsoniy qadriyatlar bilan o‘lchanadi”, “G‘ururi bor odamning qaddi rost, boshi baland bo‘ladi”, “...demokratik jamiyat, eng avvalo, qonunga quloq solish”, “Huquqiy davlatning quroli ham, himoyasi ham, ko‘zi ham, so‘zi ham qonundir”, “Xalqqa, yurtga xizmat qilish er kishi uchun, mard kishi uchun, o‘g‘lon uchun sharaflidir”, “Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi” singari qolipli gaplar aforizmlarga aylanib, turli jabhalardagi islohotlar uchun aytiladigan fikrlarni to‘ldirish uchun qo‘llanib, chuqur ma’no kasb etmoqda. Ўзбекистон деб аталмиш бу жаннатмакон юртнинг - Ватаннинг равнақи учун “Элим деб, юртим деб ёниб яшаш” бугунги кунда ҳар бир ўзбекистонлик фуқаронинг муқаддас бурчига айланиб бормоқда.

Islom Karimovning asarlari nafaqat davlat xizmatchilari va siyosatchilar, balki oddiy aholi va fuqaro uchun ham birdek tushunarli va o‘qimishlidir. Chunki unda azaldan o‘zbek xalqining qon – qoniga singib ketgan ibora va maqollarni o‘z o‘rnida qo‘llanishi, matn mazmuniga har tomonlama mos va mazmunan bir-birini to‘ldirishi, o‘z ifodasini topadi. Masalan, Birinchi Yurtboshimiz asarlarida aynan oilaga ta’rif berar ekan, oila tarbiyasi ustida to‘xtalib shunday deydi: “Bu yorug‘ dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb ataluvchi bebaho ne’mat bor. Farzand bor ekan, odamzod hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi”. Bu mavzudagi fikrlarini isbotlash uchun “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” singari xalq maqollaridan foydalanadi.

Respublikamizning bugungi va ertangi taqdiri yosh avlodning kasb mahorati, intellektual darajasi, ma’naviy taraqqiyoti, jismoniy sog‘lomligiga bog‘liq ekanligini ta’kidlab, “...yoshlar xalq ma’naviyatiniig – ham mahsuli, ham kelajagi”-deb ta’riflaydilar. - Maktab kursidan boshlab iste’dodli yoshlarni tanlash va rag‘batlantirish darkor. Bizning o‘lkamiz juda qadimiy madaniyatga ega, u bashariyatga ulug‘ allomalar, mutafakkir zotlar, faylasuflarni yetkazib bergan. “Agarki dunyo imoratlari ichida eng ulug‘i maktab bo‘lsa, kasblarning ichida eng

sharaflisi o‘qituvchilik va murabbiylikdir”, “Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta’lim-tarbiyasini ko‘rgan shaxslar kerak”.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov “ Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta’lim - tarbiyasini ko‘rgan shaxslar kerak “ (Barkamol avlod orzusi) deganda, ma’naviyatli, o‘z mustaqil fikriga ega, shaxsiy manfaatlaridan yurt va Vatan manfaatlarini ustun qo‘yadigan va albatta Vatanparvar yoshlarni nazarda tutgan bo‘lsa , ajab emas. Lekin guruch kurmaksiz bo‘lmaydi, albatta. Ayniqsa , bugungi globallashuv asrida bu g‘oyat muhim va dolzarbdir. Ba’zi bir o‘zini va avlod – ajdodini buyukligini his qila bilmaydigan kim nima desa ishonib ketaveradigan yoshlar ham bizning oramizda uchrab turibdi

“Biz o‘z iste’dodli va fidoyi farzandlarimizga bilim va kasb cho‘qqilarini zabt etishi uchun qanot berishimiz kerak”- deya yoshlarga bag‘ishlagan bu fikrini “Barkamol avlod orzusi” asarida ham keltirib o‘tadi. Umuman millatni taraqqiy ettirish, yurtni kuchli qilish , davlatni esa jahon e’tirof etadigan qudratga ega qilish uchun avvalo, uning ertasi bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash va ularga har tamonlama saboq berishdan iboratdir. Ta’lim to‘g‘risidagi qonunlar va davlat hujjatlari nafaqat kata yoshdagi o‘quvchi yoshlar balki maktab yoshidagi kichik o‘quvchlarni ham xursand qildi.

Darhaqiqat, millatning haqiqiy tayanchi va iftixoriga aylanib bo‘lgan Birinchi Prezidentimiz asarlari va so‘zlari har bir o‘zbek xonadoniga kirib borgan va qalbida vatanparvarlik tuyg‘ularini jo‘sh urdirgan. O‘zbekistonda yashagan har bir fuqaro uning hech bo‘lmaganda bir asari nomini va undagi iboralarini ishlatadi. Uning asarlarini jon dildan sevib o‘qigan xalq, millat esa hech qachon , hech kimga qaram bo‘lmaydi va har doim: “Biz hech qachon, hech kimdan kam bo‘lmaganmiz va kam bo‘lmaymiz ham”,- deya baralla ayta oladi. Biz mana shunday qat’iy va sobitqadam bo‘lsakkina , Vatan va xalq ravnaqi uchun kurasha olsakkina Vatan - Vatan , xalq- xalq bo‘ladi.

I.Karimovning ma'naviy hayotimizni yuksaltirish haqidagi aksariyat fikrlari ham bugun va kelajakda hikmatli so'zlar sifatida tillardan tushmasligi tabiiy. Ma'lumki, qadimdan mamlakat sivilizatsiyasining taraqqiyoti xalq ma'naviyati saviyasi bilan o'lchangan. Chunki yuksak ma'naviyatli inson ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy sohalarning rivojiga o'z aql zakovati bilan hissa qo'shib kelgan. Shu bois, Birinchi Prezidentimiz ham o'zbek xalqining azaliy umuminsoniy qadriyatlariga tayangan holda ma'naviy yuksalish salohiyatiga katta e'tibor qaratdilar.

Ya'ni, "Ma'naviyat-taqdirning ehsoni emas. Ma'naviyat inson qalbida kamol topishi uchun u qalban va vijdonan, aql va qo'l bilan mehnat qilishi kerak", "Ma'naviyat-insonning, xalqning, jamiyatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi", "Vatan va xalq oldidagi burchni anglash ham yuksak ma'naviyat belgisidir", "Axloq - ma'naviyatning o'zagi", "Jamiyat madaniyatsiz, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarsiz yashay olmaydi", "Adabiyot masalasi-bu ma'naviyat masalasidir", "Eng buyuk jasorat- ma'naviy jasoratdir", "Xalq ma'naviyati-buyuk ummon", "Ma'naviy sog'lom bo'lgan millatgina sog'lom avlodni tarbiyalay oladi", "Farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'ladi, qudratli yurtning farzandlari sog'lom bo'ladi" kabi ko'plab keltirilgan qaymoqli so'zlar abadul-abad xalqimizning, kelajak avlodning nutqida, tilida yashaydi

II BOB. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch asarida qo'llanilgan xalq hikmatlarining ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyati

2.1. I.A.Karimov asarlarida shaxs ma'naviyatiga e'tibor

Buyuk yo'l boshchimiz I.Karimov ma'naviy yetik insongina komillik maqomiga ega bo'lishligini "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asari asosida purma'no so'zlar ifodasida komil shaxs siymosini yaqqol gavdalantiradi. Unda sobiq yo'l boshchimiz o'zi orzu qilgan haqiqiy millatparvar, komil shaxs siymosini gavdalantiradi. Birinchi Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, komil shaxs bu o'z Vatanini sevgan, u uchun jonini ham fido qiladigan haqiqiy millatparvar shaxslar va kadrlar kerak. Ammo bu narsaga osonlikcha erishish mumkin emas, buning uchun ularni tarbiyalash, ta'lim berish kerak va zarurdir. Insonning komillik darajasi uning ma'naviyatida ko'rinadi. Bu mavzuga chuqur yondashib, I.Karimov "Ma'naviyat insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga da'vat etadigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon – e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir" -deb ta'rif beradi va bu ta'rif ma'naviyatga berilgan ta'riflar ichida eng mukammalidir.

Bu asardagi turli mavzularni qamrab olgan qarashlar natijasi bo'lgan so'zlar iboralarga aylanib, xalqimizning shioriga aylanib ulgurdi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Masalan, asarning dastlabki bobida ilgari surilgan ma'naviyatga chuqur va ilmiy – falsafiy ta'rif shu kungacha ma'naviyatga berilgan ta'riflar ichida eng mukammali va ishonarlisi deya talqin etiladi. Bu bobda moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligi haqida to'xtalib shunday deyiladi: ".....Insonga xos – orzu intilishlarni ro'yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy olamni bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak, o'ylaymanki, o'rinli bo'ladi".

Mana shu ibora faqatgina boylik va shon –shuhratga berilib ketmaslik, ma'naviyatli bo'lishga ham chorlash g'oyalari bilan sug'orilgan. Lekin faqatgina uyda yotib "Olma pish, og'zimga tush" deyish ham noo'rindir. Chunki inson diniy ta'limotga asosan Ollohga bo'ysunsa-da, ammo o'z taqdirini o'zi yaratadi va

quradi. Shu sababli odamda ham moddiy, ham ma'naviy dunyoqarash shakllangan bo'lishi kerak bo'lib, ularni go'yo qush ikki qanotiga qiyoslanadi. Chunki qushning qaysi qanoti vazifasini bajarolmasa, u qush qulaydi.

Ikkinchi bobi Mustaqillik – ma'naviy tiklanish va yuksalish bo'lib, unda ham bu boradagi, ya'ni ma'naviyatga urg'u beriladi. Unda milliy g'oya ma'naviy hayot haqidagi turli qarashlar o'z ifodasini topgan.

Islom Karimov jahon siyosiy maydonida mashhur siyosatchi, buyuk davlat arbobi, o'z mutaxassisliklarining yetuk bilimdoni bo'lishi bilan birga, o'z millati, davlati o'tmishini chuqur biladigan tarixnavis ham edi. Uni barcha ajdodlarimiz merosini asrab – avaylashga e'tibor berishi balki shundan bir nishonadir. “Shaxsan men “Temur tuzuklari”ni har gal o'qir ekanman, xuddiki o'zinga qandaydir kuch – quvvat topgandek bo'laman. O'z ish faoliyatimda bu kitobga takror – takror murojaat qilib, undagi hech qachon eskirmaydigan inson ma'naviyati bugun ham oziq bo'ladigan hikmatli fikrlarning hayotiy ekanligiga ko'p bor ishonch hosil qilaman”.

Darhaqiqat, undagi “Azmi qat'iy, hushyor va tadbirkor bir kishi tadbirsiz, loqayd ming kishidan yaxshiroqdir” degan jumla bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, aksincha, yangi nom va ma'no kasb etib, bo'y cho'zmoqda. “Men faqat loqayd, e'tiborsiz odamdan qo'rqaman” deya atalishi ham buning isbotidir. Islom Karimovning asarlari nafaqat davlat xizmatchilari va siyosatchilar, balki oddiy aholi va fuqaro uchun ham birdek tushunarli va o'qimishlidir. Chunki unda azaldan o'zbek xalqining qon – qoniga singib ketgan ibora va maqollardan o'z o'rnida qo'llanila olishi, matn mazmuniga har tomonlama mos va mazmunun bir – birini to'ldirishi, o'z ifodasini topadi.

Har bir o'tmishini bilgan inson, kimni avlodi ekanligini unutmagan odamgina buyuk ishlarga qodir. Chunki u o'tmishdan doim saboq ola oladi va o'z o'tmishidan xulosa chiqara oladi. Bu borada “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida ham shunday deyiladi: “Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf – odat va an'analari, hayotiy

qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi". Bu fikrlarni tasdig'ini bugun har bir millat va xalqlar isbotlab turibdi.

Shunindek, muhim o'rin va rol egallovchi ijtimoiy hodisa bu – dindir. Dindan to'g'ri foydalanilmagan sharoitda u juda katta qurol va mafkuraga aylanadi. Bizning ideallarimiz, orzu va umidlarimiz ham uning bizning hayotimizda naqadar muhim o'rin egallashini ko'rsatib turibdi. O'zbek xalqi qadim – qadimdan turli dinlarga buysunar edi. Ammo Zardusht tavalludi va zardushtiylik dinining paydo bo'lishi tafakkurni yanada boyitdi. Islom dini esa arablar orqali majburan singdirilgan bo'lsa-da, u xalqimiz, millatimiz dunyoqarashiga muvofiqligi, hatto chumoliga ham ozor bermasligi sababli chuqur o'rnashib qoldi. Xattoki, bu din Arabistonda vujudga kelgan esa-da, uning rivojlanish bosqichi Markaziy Osiyo bilan bog'liq. Chunki xalqimiz orasidan mashhur muhaddislar-u islom olimlari yetishib chiqqani buning yaqqol dalilidir. Birgina “Amir – ul mo'miniyin” deya Imom Buxoriyni zikr etilishiyoq, bu boradagi qarashlarni oydinlashtiradi.

O'zbek xalqiga singib ketgan insoniylik, mehr – oqibat, halollik, oxiratni o'ylab yashash, yaxshilik, mehr – shafqat kabi tushunchalar zamirida ham din yotadi. Bugungi kunda esa, islomni chuqur bilmay turib, uni “o'zicha” talqin etayotgan yovuz kuchlar butun islom ahli uchun ulkan muammo hisoblanadi. O'zini islom rahbari deya atayotgan ba'zi bir razil kimsalar esa din to'g'risida tushunchaga ega bo'lmagan yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirib, shaxsiy maqsadi yo'lida foydalanyapti. Ularni manfur ishlarini O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov shunday ta'riflaydi: ”Islom tafakkuri, islom falsafasi, islom madaniyati markazi deganda barcha musulmonlarning ko'z oldiga Makkayu Madina, Bag'dod va Damashq, Qohira va Mashhad, Samarqandu Buxoro kabi ko'pgina tabarruk maskanlar kelishi tabiiy. Lekin bugun o'zi uya qurib olgan tog'u toshlarni islom markazi deb da'vo qilayotgan terrorchi

gazandalarning surbetligi shu darajaga yetmoqdaki, ularning boshlig'i o'zini, nima emish "amirul –ul mo'minin", ya'ni yer yuzidagi barcha musulmonlarning amiri, podshosi deb e'lon qilibdi. O'z –o'zidan savol tug'iladi: dunyodagi bir yarim milliarddan ortiq musulmon nomidan gapirishga kim ularga vakolat va huquq beribdi? Axir, o'zingiz o'ylab ko'ring, Qur'oni Karim nozil bo'lgan muqaddas zamin – Saudiya Arabistoni podshosi ham hokisorlik bilan o'zini ikki muqaddas masjidning xodimi, xizmatchisi deb ataydi-yu, zoti – zurriyodi, nasl – nasabining tayini yo'q allaqanday kimsalar butun ummatiga rahnamolikni da'vo qiladi ?...

Mana shunday qabih kuchlar muqaddas tuyg'ularimizni oyoq – osti etsa, kuppа- kunduzi din-u diyonatimizga tuhmat qilsa, bunga beparvo qarab, befarq bo'lib o'tirishga bizning nima haqqimiz bormi? Ko'ksida ozgina vijdoni, imoni bor har qanday odam bunday yaramas ishlarni ko'rganda o'z – o'zidan yonib ketmaydimi?"

Bir so'z bilan aytganda, xalqi kelajagi, yurtining ertangi kuni, millati obro'sini o'ylaydigan kishi borki biz uni komil inson deya olamiz. Va maqsadimiz ham ana shunday komil insonlarni tarbiyalashdan iborat. Bu borada yoshlarga buyuk allomalarning ma'naviy qiyofasini belgilab turgan, asrlar osha har qanday to'fonlardan o'tib, kelajak yoshlar va katta-yu kichikka ma'naviy ozuqa bo'lib xizmat qilib kelayotgan nodir asarlar o'qitish darkorligi uqtirilgan. Buyuk allomalarning shaxsiga oid yuksak baho berilgani mazkyr kitobning yanada qimmatini oshirgan.

Buyuk mutafakkir va allomalarimizning islom madaniyatini ravnaq toptirishga qo'shgan betakror hissasi to'g'risida so'zyuritganda, eng avvalo, haqli ravishda musulmon olamida «muhaddislar sultoni» deya ulkan shuhrat qozongan Imom Buxoriy bobomizning muborak nomlarini hurmat-ehtirom bilan tilga olamiz. Bu mo'tabar zot merosining gultoji bo'lmish eng ishonchli hadislar to'plami – «Al-jome' as-sahih» kitobi islom dinida Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi muqaddas manba bo'lib, ahli islom e'tiqodiga ko'ra, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng

ulug‘i hisoblanadi. Mana, o‘n ikki asrdiki, bu kitob millionlab insonlar qalbini iymon nuri bilan munavvar etib, haq va diyonat yo‘liga chorlab kelmoqda.

Yana bir ulug‘ vatandoshimiz – Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziyning ma’naviy merosi, jumladan, «Sunani Termiziy» Yana bir ulug‘ vatandoshimiz – Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziyning ma’naviy merosi, jumladan, «Sunani Termiziy» asari ham musulmon olamida ana shunday yuksak qadrlanadi. Allomaning asrlar davomida olimu fuzalolarga dastur bo‘lib kelgan insof va adolat, inson parvarlikni targ‘ib etuvchi g‘oyalari hozirgi murakkab davrimizning ko‘plab axloqiy-ma’naviy masalalarini hal etishda ham muhim ahamiyat kasb etishi bilan e‘tiborga molikdir. Manbalarning guvohlik berishicha, Imom Buxoriy vafot etgan, ya’ni milodiy 870 yili tariximizdagi yana bir mumtoz siymo Imom Moturidiy tavallud topgan ekan. Bu voqea zamirida shaxsan menga ilohiy bir bog‘liqlik, Ollohning buyuk marhamati bordek, bamisoli Imom Buxoriyning nurli qalamini Imom Moturidiy olib, ul zotning xayrli ishlarini davom ettirishga bel bog‘lagandek tuyuladi.

Imom Moturidiy bobomizning o‘rta asrlardagi g‘oyat xatarli va tahlikali bir vaziyatda o‘z hayotini xavf ostiga qo‘yib, avlodlarga ibrat bo‘ladigan ma’naviy jasorat namunasini ko‘rsatib, islom olamida «Musulmonlarning e‘tiqodini tuzatuvchi» degan yuksak sharafiga sazovor bo‘lgani bu nodir shaxsning ulkan aql-zakovati va matonatidan dalolat beradi.

Ul zot asos solgan moturidiya maktabi Sharq mamlakatlarida bunday katta shuhrat topishining sababi shundaki, unda ilgari surilgan g‘oyalar islom dinimizning asosini to‘g‘rilik, ezgulik va insoniylikdan iborat deb biladigan jamiki mo‘min-musulmonlarning qarash va intilishlari bilan hamohang edi.

O‘zining beqiyos salohiyati bilan buyuk ilmiy maktab yaratib, go‘zal Farg‘ona diyori jahonga tarannum etgan islom huquqshunosligining yana bir ulkan namoyandasi Burhoniddin Marg‘inoniyning tabarruk nomini butun musulmon dunyosi yuz yillar davomida e‘zozlab keladi. Bu mo‘tabar allomaning Sharq olamida «Burhoniddin va millat», ya’ni «Din va millatning hujjati» degan yuksak unvonga sazovor bo‘lgani ham buni yaqqol isbotlaydi. Marg‘inoniyning o‘lmas merosi,

xususan, ellik yetti kitobdan iborat «Hidoya» – «To‘g‘ri yo‘l» deb atalgan asari, mana, sakkiz asrdirki, musulmon mamlakatlarida eng nufuzli va mukammal huquqiy manba sifatida e‘tirof etib kelinayotgani albatta bejiz emas.

Butun dunyoga ma‘lum va mashhur bo‘lgan buyuk alloma va aziz-avliyolarimiz orasida Abdulxoliq G‘ijduvoni va Bahouddin Naqshbandning muborak siymosi alohida ajralib turadi. Ota- bobolarimiz ulug‘ avliyo Bahouddin Naqshbandga chin dildan ixlos qo‘yib, uni «Bahouddini Balogardon» deb ta‘riflab kelishida teran ma‘no bor. Uning «Diling Ollohda, qo‘ling mehnatda bo‘lsin» degan hayotbaxsh hikmati dinimizning olijanob ma‘no-mohiyatini yorqinifodalab, xuddiki shu bugun aytilgandek jaranglaydi. Bu murakkab dunyoning azaliy va abadiy muammolari, shu bilan birga, har bir davrning dolzarb masalalariga har tomonlama asosli ilmiy javoblar topilgan taqdirdagina ma‘naviyat olami yangi ma‘no-mazmun bilan boyib boradi.

Boshqacha aytganda, har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot – bu yangicha fikr va dunyoqarashga turtki beradi, ma‘naviyatning shakllanishiga o‘ziga xos ta‘sir o‘tkazadi. SHu nuqtai nazardan qaraganda, zaminimizda yashab o‘tgan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning ibratli hayoti va faoliyati, bemisl ilmiy-ijodiy kashfiyotlari bugun ham jahon ahlini hayratga solayotganini g‘urur bilan ta‘kidlash lozim. Masalan, Muhammad Muso Xorazmiyning o‘nlik sanoq sistemasini, algoritm va algebra tushunchalarini dunyoda birinchi bo‘lib ilm-fan sohasiga joriy etgani va shu asosda aniq fanlar rivoji uchun o‘z vaqtida mustahkam asos yaratgani umuminsoniy taraqqiyot rivojida qanday katta ahamiyatga ega bo‘lganini barchamiz yaxshi bilamiz. Bugungi kunda odamzotning ilm-fan va zamonaviy texnologiyalar borasida erishayotgan ulkan yutuqlarini ko‘z oldimizga keltirar ekanmiz, beixtiyor ana shu buyuk bobomiz misolida bunday yuksak marralarga erishishda o‘zbek xalqining hammunosib hissasi borligidan qalbimiz iftixorga to‘ladi.

Yana bir ulug‘ ajdodimiz – Ahmad Farg‘oniy insoniyat tarixidagi ilk Uyg‘onish davrining eng zabardast va kuchli namoyandasi, o‘z zamonasining fundamental fan asoschilaridan biri sifatida bashariyat dunyoqarashi va ma‘naviyatining rivojlanishiga beqiyos ta‘sir ko‘rsatdi. Uning bebaho merosi o‘z davri olimlari uchun dasturilamal

bo‘lib xizmat qilgani tarixiy manbalar orqali yaxshi ma‘lum. Allomaning «Astronomiya asoslari haqida kitob» nomli asari o‘n ikkinchi asrdayoq lotin va ivrit tillariga tarjima etilgani ham bu fikrning dalilidir. Evropada Al-Fraganus nomi bilan mashhur bo‘lgan bu allomaning ilm-fan rivojidadagi nufuzi shu qadar yuksak ediki, uning ismi sharifi er kurrasidagina emas, balki samoda ham shuhrat topdi. O‘n oltinchi asrda Oydagi kraterlardan biriga uning nomi berilgani bu fikrni isbotlaydi. Atoqli astronom Yan Geveliy tomonidan 1647 yili nashr qilingan «Selenografiya» kitobida Oydagi kraterlardan ikkitasi ikki buyuk vatandoshimiz – Ahmad Farg‘oniy va Mirzo Ulug‘bek nomi bilan ataladi. Milliy tariximizning yana bir yorqin yulduzi Abu Rayhon Beruniy faoliyatiga haqqoniy baho berar ekan, amerikalik fan tarixchisi Sarton XI asrni «Beruniy asri» deb ta‘riflaydi. Bunday yuksak va haqli baho avvalo qomusiy tafakkur sohibi bo‘lmish buyuk vatandoshimizning ilm-fan taraqqiyotiga qo‘shgan beqiyos hissasi bilan izohlanadi. Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, Beruniy ilmiy masalalarda ham, tarixiy voqea hodisalarga, o‘z zamondoshlariga baho berishda ham o‘ta xolislik va haqqoniylik bilan fikr yuritgan. Shu bois ham u hayotda ko‘p aziyatlar chekkan, hatto umrining oxirida turmush qiyinchiliklariga duchor bo‘lgan, ammo har qanday og‘ir sharoitga qaramasdan, e‘tiqodidan qaytmagani uning o‘z ma‘naviy ideallariga naqadar sodiq bo‘lganidan dalolat beradi.

Ana shunday noyob fazilatlar sohibi bo‘lmish mashhur alloma Ibn Sinoning «Tib qonunlari» asari necha asrlar davomida Yevropaning eng nufuzli oliy o‘quv yurtlarida asosiy tibbiyot darsliklaridan biri sifatida o‘qitib kelingani, dunyo miqyosida «Meditina», «Sog‘lom turmush tarzi» degan tushunchalarning fundamental asosi bo‘lib xizmat qilgani, albatta, chuqur hayotiy va ilmiy zaminga ega. Aniqroq qilib aytganda, bu benazir allomaning butun ilmiyfaoliyati dunyo taraqqiyotini insonparvarlik ruhida, ya‘ni, ma‘naviy negizda rivojlantirishga ulkan ta‘sir o‘tkazdi, deb aytishga barcha asoslar bor.

Yoki o‘rta asrlarda Xorazm diyorida olis Arabistonga borib, arab tili grammatikasini mukammal tarzda ishlab chiqqan, ilm-fanning ko‘plab boshqa sohalarida ham shuhrat qozongan Mahmud Zamahshariy bobomizni esga olaylik.

O‘zining jismoniy nogironligiga qaramay, dunyoning ko‘plab mamlakatlariga mashaqqatli safarlar qilgan, teran bilimi va ilmiy salohiyati bilan butun islom olamini lol qoldirgan bu zot, hech shubhasiz, xalqimiz uchun ma’naviy etuklik timsoli bo‘lib qolaveradi. Agarki mana shu muqaddas zaminimizda tavallud topib, voyaga etgan, o‘z hayoti va faoliyati bilan nafaqat tarixda, ayni vaqtda bashariyatning bugungi taraqqiyot sahifalarida ham o‘chmas iz qoldirgan buyuk mutafakkir va allomalarimiz, aziz-avliyolarimizni ta’riflashda davom etadigan bo‘lsak, o‘ylaymanki, bu borada uzoq gapirish mumkin.

Bizning o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadimiz esa, bunday ulug‘ zotlarning hayot yo‘li va qoldirgan merosini to‘liq tasvirlash emas, balki ularning eng buyuk namoyandalari timsolida ma’rifat, ilmu fan, madaniyat, din kabi sohalarning barchasini o‘zida uyg‘unlashtirgan xalqimizning ma’naviy olami naqadar boy va rang-barang ekanini isbotlab berishdan iboratdir. Bunday noyob va bebaho boyligni har tomonlama chuqur o‘rganish, uning ma’no-mazmunini farzandlarimizga etkazish masalasi barchamiz, birinchi galda, ziyolilarimiz, butun jamoatchiligimiz uchun ham qarz, ham farz bo‘lishi shart, deb hisoblayman. Nega deganda, o‘zimiz – bugun shu yurtda yashayotgan vatanparvar insonlar bu vazifani o‘z zimmamizga olmasak, chetdan kelib hech kim hech qachon bu ishni qilib bermaydi.

Shu o‘rinda buyuk bobolarimizning ma’naviy olami xususida fikr yuritganda, Sohibqiron Amir Temur haqida alohida to‘xtalishimiz tabiiydir. Chunki tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo‘lgan bu mumtoz siymo buyuk saltanat barpo etib, davlatchilik borasida o‘zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdi, ilmu fan, madaniyat, bunyodkorlik, din va ma’naviyatrivojiga keng yo‘l ochdi. Shaxsan men «Temur tuzuklari»ni har gal o‘qir ekanman, xuddiki o‘zimga qandaydir ruhiy kuch-kuvvat topgandek bo‘laman. O‘z ish faoliyatimda bu kitobga takror-takror murojaat qilib, undagi hech qachon eskirmaydigan, inson ma’naviyati uchun bugun ham oziq bo‘ladigan hikmatli fikrlarning qanchalik hayotiy ekaniga ko‘p bor ishonch hosil qilganman. Masalan, «Tajribamda ko‘rilgankim, azmi qat’iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir», degan

soʻzlar bugungi kunda ham maʼnaviy jihatdan naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekani barchamizga ayon. Amir Temur bobomizning bunday chuqur maʼnoli hikmatlari xalqimizda qadimdan mavjud boʻlgan «Bilagi zoʻr birni, bilimi zoʻr mingni yiqar» degan maqolga gʻoyat hamohang boʻlib, insonni doimo aql-idrok, adolat va yuksak maʼnaviyat asosida yashashga daʼvat etishi bilan eʼtiborlidir. Buyuk Amir Temurning nabirasi, benazir alloma Mirzo Ulugʻbekning oʻrta asrlar sharoitida namoyon etgan ilmiy jasorati bugungi kun olimlarini ham hayratga solmasdan qoʻymaydi. Taqdir bu ulugʻ zotning zimmasiga behad ulkan va mashaqqatli vazifalar yukladi. Buyuk sarkarda Amir Temur bunyod etgan saltanatning vorisi boʻlishdek oʻta masʼuliyatli vazifa aynan unga nasib etdi. Mirzo Ulugʻbek qariyb qirq yil mobaynida Movarounnahr diyorining donishmand hukmdori sifatida xalqning azaliy orzusi tinchlik, totuvlik, ilm-fan va madaniyatni taraqqiy toptirish yoʻlida ulkan shijoat va matonat koʻrsatdi.

Bu benazir alloma oʻzida minglab yulduzlarning harakatini jamlagan mukammal astronomik jadvalni yaratdi. Ushbu jadvalda zikr etilgan ilmiy maʼlumotlarning naqadar aniq va toʻgʻri ekanini bugungi eng zamonaviy asboblardan ham tasdiqlaydi. Ulugʻbekning hayoti va ilmiy faoliyati xalqimiz maʼnaviyatining poydevoriga qoʻyilgan tamal toshlaridan biri boʻlib, yurtimizda bundan necha zamonlar oldin fundamental fanlarni rivojlantirishga qanchalik katta ahamiyat berilganini koʻrsatadi. «Ziji jadidi Koʻragoniy» deb nomlangan Ulugʻbek astronomik jadvali oʻrta asrlarda lotin tiliga tarjima qilinib, Evropa olimlari orasida keng tarqalgan fikrimizning yaqqol isbotidir. Bu haqda soʻz yuritar ekanmiz, beixtiyor 1996 -yili Parijda YUNESKOning oʻsha paytdagi Bosh kotibi Federiko Mayor janoblari bilan boʻlgan bir suhbat yodimga tushadi. Oʻshanda janob Mayor Ulugʻbekning ilmiy merosini yuksak baholab, uning yulduzlar harakatiga oid hisob-kitoblari bugungi kunda kompyuter yordamida tekshirib koʻrilganda atigi bir necha daqiqaga farq qilishi aniqlandi, degan gapni aytib qoldi. SHunda men unga javoban, yoʻq, janob Federiko Mayor, Ulugʻbek xato qilgan boʻlishi mumkin emas, balki kompyuterlar xato qilgan

bo‘lishi mumkin, degan edim. Garchi bu gap do‘stona lutf tariqasida aytilgan bo‘lsada, o‘ylaymanki, uning zamirida chuqur haqiqat mujassam.

O‘zbek xalqi ma’naviy dunyosining shakllanishiga g‘oyat kuchli va samarali ta’sir ko‘rsatgan ulug‘ zotlardan yana biri – bu Alisher Navoiy bobomizdir. Biz uning mo‘tabar nomi, ijodiy merosining boqiyliigi, badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo faxrlanib so‘z yuritimiz. Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g‘ururi, sha’nu sharafini dunyoga tarannum qilgan o‘lmas so‘z san’atkoridir. Ta’bir joiz bo‘lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so‘zlovchi biron-bir inson yo‘qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e’tiqod bilan qaramasa.

Agar bu ulug‘ zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir.

Inson qalbining quvonchu qayg‘usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyliigi va buyukligini anglash tuyg‘usi ham bizning ongu shuurimiz, yuragimizga, avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko‘p bahramand etsak, milliy ma’naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma’rifiy qurolga ega bo‘lamiz. Ma’lumki, biron-bir xalq ma’naviyatiga xos qadriyatlarning boshqa xalqlar tomonidan tan olinishi, tabiiyki, ana shu xalq tarixiga nisbatan chuqur hurmat ifodasidir. Bunday e’tirof xalqning g‘urur va iftixori, milliy o‘zligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Shu ma’noda, keyingi paytda buyuk ajdodlarimizning so‘nmas dahosiga hurmat-ehtirom, ularning boy ilmiy merosini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish xorijiy ellarda ham ortib borayotgani barchamizni quvontiradi. Buning tasdig‘ini dunyoning turli mamlakatlarida ularning hayoti va faoliyati haqida e’lon qilinayotgan ilmiy va badiiy asarlar, ulug‘ ajdodlarimiz xotirasiga barpo etilayotgan yodgorliklar misolida ham ko‘rish mumkin. Shular qatorida Belgiyada Ibn Sinoga, Litvada Mirzo Ulug‘bekka, Moskva, Tokio va

Boku shaharlarida Alisher Navoiy bobomizga, Misr poytaxti Qohira shahrida esa Ahmad Farg‘oniy xotirasiga o‘rnatilgan muhtasham haykallarni eslash joiz.

Xalqimizning asl tabiatida mavjud bo‘lgan ana shundayilmiy-ma‘naviy salohiyat va fazilatlar haqida gapirar ekanmiz, «Oqqan daryo oqaveradi», degan naql beixtiyor yodimizga tushadi. Chindan ham, tariximizning qaysi davrini olmaylik, yurtimizda ilmu ma‘rifat va yuksak ma‘naviyatga intilish hech qachon to‘xtamaganini, xalqimiz dahosining o‘lmas timsoli sifatida eng og‘ir va murakkab davrlarda ham yaqqol namoyon bo‘lib kelganini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, chorizm mustamlakasi davrida ma‘rifat g‘oyasini baland ko‘tarib chiqqan jadid bobolarimizning faoliyati bunga yana bir yorqin misol bo‘la oladi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Ishoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab ma‘rifatparvar, fidoyi insonlarning o‘z shaxsiy manfaati, huzur-halovatidan kechib, el-ulus manfaati, yurtimizni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlari avlodlar xotirasidan aslo o‘chmaydi.

Ana shunday ulug‘ ajdodlarimizning ilmiy-ijodiy merosi va ibratli faoliyati keyinchalik diyorumizda Qori Niyoziy va Toshmuhammad Sarimsoqov, Habib Abdullaev va Sa‘diy bilan uzoqqa borib bo‘lmaydi. Tariximiz sahifalari shundan dalolat beradiki, yurtimiz rivoji hamma zamonlarda ham bir tekis kechmagan. Ayniqsa, temuriylar hukmronligidan so‘ng – ya‘ni XVII asrdan XX asrning boshlarigacha bo‘lgan davrda Turkiston zamini siyosiy parokandalik, jaholat va qoloqlikka yuz tutdi. Uch xonlikka bo‘linib ketgan mintaqa uzoq muddat o‘zaro ziddiyat va qarama- qirshiliklar, urush-janjallar girdobida qolib ketgani nafaqat iqtisodiy, moliyaviy va harbiy salohiyat nuqtai nazaridan, balki ijtimoiy-ma‘naviy fikr rivojida ham ko‘p salbiy oqibatlarni keltirib chiqargani barchamizga yaxshi ma‘lum. Tarix g‘ildiragining aylanishi bilan, avvalambor, yurt hukmdorlari va amaldorlari xalqning taqdiri va kelajagi haqida qayg‘urish o‘rniga, o‘z shaxsiy manfaatlarini hamma narsadan ustun qo‘yib, jaholat va g‘aflatga berilib ketishi oqibatida biz bugun yashayotgan mintaqa umumbashariy taraqqiyot jarayonlaridan uzilib, rivojlanishdan keskin orqada qolib ketdi. O‘zaro nizo va adovatlarning kuchayishi, faqat o‘z

qobig'iga, umrini o'tab bo'lgan aqidalarga o'ralashib yashash natijasida bir vaqtlar buyuk madaniyat va taraqqiyot davrlarini boshidan kechirgan Sirojiddinov, Obid Sodiqov va Sobir Yunusov, Yahyo G'ulomov va Bo'riboy Ahmedov, Oybek va G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor va Zulfiya, Said Ahmad va Ozod Sharafiddinov, Lutfixonim Sarimsoqova va Halima Nosirova, Olim Xo'jaev, Razzoq Hamroyev va boshqa ko'plab nomlari dunyoga tanilgan mashhur ilm-fan, adabiyot va madaniyat arboblarning yetishib chiqishiga mustahkam zamin bo'lib xizmat qildi.

Yuqorida zikr etilgan misollarni umumlashtirgan holda, muhim bir fikrni xulosa tariqasida ta'kidlashni zarur, deb bilaman. Gap shundaki, tariximizda bunday benazir siymolarning mavjudligi takroran aytishga to'g'ri keladi – o'ziga xos bir fenomen, ya'ni o'ta noyob hodisadir. Bu esa nafaqat bugungi, ayni paytda ertangi avlodlarimizning ham ma'naviy boyligiga aylanib, xalqimizga hech narsa bilan o'lchab, qiyoslab bo'lmaydigan ruhiy kuch- quvvat va madad berishi muqarrar.

“Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch” asari o'z mavzu qamrovi va mazmuniga ko'ra qimmatli asar hisoblanadi. Shu bois kitob qoraqalpoq , tojik, qirg'iz va qozoq tillariga tarjima qilinib , chop etilgan. O'tgan davr mobaynida bu kitob jahon miqyosida, xususan, musulmon olamida ham katta qiziqish uyg'otdi va Quvayt davlatida arab tiliga , Turkiya Respublikasida turk tiliga tarjima qilindi. Misr Arab Respublikasi, Saudiya Arabistoni Podshohligi, Quvayt, Birlashgan Arab Amirliklari, Bahrayn kabi mamlakatlarda kitobning taqdimot marosimlari o'tkazildi. Xalqimiz tomonidan alohida qiziqish va e'tibor bilan kutib olingan bu fundamental asar mamlakatimiz ma'naviy hayotida tom ma'noda katta voqea bo'ldi.

2.2. Xalq ogzaki ijodi va tarixiy yodgorliklarning millat ruhiyatiga ta'siri

Yosh avlod tarbiyasining muhim jihatlaridan biri, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekiston Respublikasining Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisi XIV sessiyasida so'zlagan nutqida qayd etganidek, ularning qalbi va ongiga, kundalik turmush tarziga "ota - bobolarimizdan qolgan bebaho meros, milliy urf-odat va an'analar"ning mazmun-mohiyatini tushuntirish va singdira borishdan iboratdir.

Tabiiyki, bu jarayonda xalqimizning ma'naviy an'alariga, hikmatli so'z va maqollarining insonparvarlik mohiyatiga e'tibor qaratish alohida ahamiyat kasb etadi. Jamiyatning barcha qatlamlarini, ayniqsa, yoshlar va ularning eng ilg'or qatlami bo'lgan talaba yoshlarni yuksak ma'naviyat va ma'rifat sohibi qilib tarbiyalashda ming yillar davomida saqlanib kelayotgan xalq maqollarining o'rni kattadir.

Xalq asrlar mobaynida to'plagan hayotiy tajribasini turli vositalar yordamida kelajak avlodlarga meros qilib qoldiradi. Maqollar ana shunday bebaho meros namunasi hisoblanadi. Ular zamonlar osha, xalq donishmandligining muhim manbai sifatida, og'izdan-og'izga o'tib, sayqallanib kelgan. Maqollar xalq og'zaki ijodining boshqa janrlari singari, har bir xalqning milliy adabiy va madaniy boyligi hisoblanadi. Ular xalqning milliy-madaniy xususiyatlari va uning qirralarini, dunyoqarashi, axloqiy me'yor va prinsiplarini, an'ana va qadriyatlarini, millatning ruhiy holatini to'liq ifodalaydi hamda jamiyatning, ayniqsa, ertangi kun egasi bo'lgan yoshlar ongini o'stirishda muhim rol o'ynaydi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida "Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyaning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim sharti"¹³ ekani ta'kidlangan.

Ana shunday boy intellektual mulklardan biri maqollardir. Maqollar xalqning hayotiy tajribalaridan kelib chiqqan teran fikrlarning aniq va ixcham ifodasi sifatida chuqur mazmunga ega bo'lgan alohida janr hisoblanadi.

10. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: Sharq, 1998. 34-bet.

Milliy ma'naviyatni o'stirish inson hayoti va Vatan ravnaqi uchun muhim ekan, uni shakllantiradigan asosiy mezonlarni bilishimiz kerak. Bu borada bizga ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillar bo'lib xizmat qiladi. Biz ma'naviy meros deganda, xalqimizning o'tmishda yashab ijod etgan buyuk shoirlar-u yozuvchilar, ma'naviyat qahramonlari tomonidan yozib qoldirilgan badiiy asarlarni tushunamiz. Biz ularni o'qib-o'rganish mobaynida aqliy qobiliyatimiz charxlanib, ulardan ma'nan ozuqa olamiz. Birinchi Prezidentimiz adabiyotni va milliy tilni xalqimiz ma'naviyatida yuksak o'rin tutishini e'tirof etib, ularni yuksaltirish haqida ko'plab ko'rsatmalar berib o'tadilar.

Shuni ta'kidlash kerakki, biz bu haqda gapirganda, avvalo ongliyashaydigan, mantiqiy fikrlashga qodir bo'lgan, o'z qarashlarining ma'no-mazmunini har tomonlama asoslab, isbotlab bera oladigan odamlarni nazarda tutamiz. O'ylaymanki, yer yuzida qancha inson, qancha taqdir bo'lsa, har birining o'z ma'naviy olami bor. **Ma'naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo insonni tushunish, anglash kerak.** Shuning uchun ham o'zligini, insoniy qadr- qimmatini anglab etgan har qanday odam buhaqda o'ylamasdan yashashini tasavvur qilish qiyin. Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribasi, diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan bu kabi tarixiy yodgorliklar orasida bundan qariyb uch ming yil muqaddam Xorazm vohasi hududida yaratilgan, «Avesto» deb atalgan bebaho ma'naviy obida alohida o'rin tutadi. Avvalambor, shuni aytish joizki, olis ota-bobolarimizning aql-zakovati, qalb qo'ri mahsuli bo'lmish bu noyob yodgorlikning zamon to'fonlaridan, qanchadan-qancha og'ir sinovlardan o'tib, bizning davrimizgacha etib kelganining o'zida katta ma'no mujassam. Bunday o'lmas osori atiqalar bu ko'hna o'lkada, bugun biz yashab turgan tuproqda qadimdan buyuk madaniyat mavjud bo'lganidan guvohlik beradi.

Ana shunday tarixiy yodgorlik namunalari bilan yaqindan tanishar ekanmiz, ularda ifoda etilgan teran fikr va g'oyalar, hayot falsafasi bizni bugun ham hayratda qoldirishiga yana bir karra amin bo'lamiz. Misol uchun, «Avesto»ning tub ma'no-

mohiyatini belgilab beradigan «Ezgu fikr, ezgu soʻz, ezgu amal» degan tamoyilni oladigan boʻlsak, unda hozirgi zamon uchun ham behad ibratli boʻlgan saboqlar borligini koʻrish mumkin. Ana shunday fikrlar, yaʼni, ezgu niyat, soʻz va ish birligini jamiyat hayotining ustuvorgʻoyasi sifatida talqin etish bizning bugungi maʼnaviy ideallarimiz bilan naqadar uzviy bogʻliq, nechogʻliq mustahkam hayotiy asosga ega ekani ayniqsa eʼtiborlidir.

«Avesto»da borliqning yaxlitligi va bir butunligi, inson hayotining tabiat bilan uygʻunligi masalasi odamning ruhiy olamiga chambarchas bogʻliq holda koʻrsatilgani koʻp narsani anglatadi. Bu holat insonning maʼnaviy dunyosini shakllantirishda atrof-muhit qadim zamonlardan buyon qanday kuchli taʼsir oʻtkazib kelganiga yana bir bor eʼtiborimizni jalb qiladi. Maʼlumki, bu dunyoda har qaysi millatning oʻz afsonaviy qahramonlari, oʻzi sevib ardoqlaydigan pahlavonlari boʻladi. Xalqimiz azaldan oʻz vujudi, oʻz tomirida mavjud ilohiy qudratga munosib boʻlmoqqa intilib, oʻz oʻgʻlonlarini mardlik va halollik, jasurlik ruhida, el-yurt uchun jonini ham ayamaydigan asl pahlavonlar etib tarbiyalab kelgan.

Shu maʼnoda, xalq ogʻzaki ijodining noyob durdonasi boʻlmish «Alpomish» dostoni millatimizning oʻzligini namoyon etadigan, avlodlardan avlodlarga oʻtib kelayotgan qahramonlik qoʻshigʻidir. Agarki xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tuganmas bir doston boʻlsa, «Alpomish» ana shu dostonning shoh bayti, desak, toʻgʻri boʻladi. Bu mumtoz asarda tarix toʻfonlaridan, hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib, oʻzligini doimo saqlagan el-yurtimizning bagʻrikenglik, matonat, olijanoblik, vafo va sadoqat kabi ezgufazilatlari oʻz ifodasini topgan.

Shu bois «Alpomish» dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgoʻy boʻlishga, oʻz yurtimizni, oilamiz qoʻrgʻonini qoʻriqlashga, doʻstu yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga oʻrgatadi. Bir paytlar, aniqrogʻi, oʻtgan asrning 50-yillarida, milliy merosimizning koʻpgina namunalari kabi, «Alpomish» dostoni ham millatchilik ruhidagi asar sifatida qoralanib, qatagʻonga uchragan edi. Oʻsha ogʻir yillarda fidoyi ziyolilarimiz jasorat koʻrsatib, uni saqdab qolishga muvaffaq

bo‘lganliklarini bugun minnatdorlik bilan eslaymiz. Bu o‘lmas asarni xalqimiz asrlar davomida yaratgan, o‘z iymon-e‘tiqodidek asrab-avaylagan, qancha avlod-ajdodlarimiz «Alpomish» dostoni asosida tarbiya topgan, o‘zligini anglagan, ma’naviyboylikka ega bo‘lgan. Demak, xalqimiz bor ekan, Alpomish siymosi ham barhayot. Chunki «Alpomish» dostoni ijodiy tafakkurimiz, ma’naviy boyligimizning yorqin namunasi bo‘lib, tarixiy ildizlarimizning qanchalik chuqur ekani, xalqimiz qanday tabiiy-ijtimoiy muhitda shakllanib, rivojlanganini, ajdodlarimizning olis davrlarda ham jamoa bo‘lib, bir- biriga elkadosh bo‘lib, o‘z boshiga tushgan qiyinchiliklarni birgalikda yengib yashaganini yorqin bo‘yoqlarda tasvirlab berib, “Alpomish “ dostoni haqida quyidagi fikrni aytib o‘tadilar: “ Alpomish dostoni millatimizni o‘zligini namoyon etadigan, avlodlardan - avlodlarga o‘tib kelayotgan qahramonlik qo‘shigi’dir. Agarki xalqimizning qadimiy va shonli tarixini tunganmas bir doston desak, “Alpomish bu dostonng shoh bayti, desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Bu mumtoz asrda tarix to‘fonlaridan, hayot - mamot sinovlaridan omon chiqib, o‘zligini doimo saqlagan el-u yurtimizning bag‘rikenglik, matonat, olijanoblik, vafo va sadjqt kabi ezgu fazilatlari o‘z ifodasini topgan”.

Shu o‘rinda asardagi kichik bir misolga murojaat qilaylik. Ota-bobolarimizning qadimiy tasavvuriga ko‘ra, o‘q-yoy – hokimiyat nishoni hisoblangan. Alpomish etti yoshida o‘n to‘rt botmon birichdan bronzadan yasalgan yoydan o‘q otib, «alp» degan unvonga ega bo‘ladi. Alp degani – hokimiyat egasi ekanini inobatga olsak, bu doston ko‘p asrlik milliy davlatchiligimizning badiiy ifodasi ekaniga ham ishonch hosil qilamiz. Bir so‘z bilan aytganda, xalqimizning engilmas bahodiri – Alpomish timsolida biz Vatanimizni yomon ko‘zlardan, balo- qazolardan asrashga qodir, kerak bo‘lsa, bu yo‘lda jonini ham fido qilishga tayyor bo‘lgan azamat o‘g‘lonlarimiz bugungi alpomishlarning ma’naviy qiyofasini ko‘ramiz.

Ishonamanki, har bir avlod mana shu qahramonlik dostonini asrab-avaylab kelgusi avlodlarga etkazadi. Bu qahramonlikeposini kuylab, uni qalbiga, shuuriga jo qilgan millatni esa hech qanday kuch engay olmaydi.

Milliy ma'naviyatimiz azaldan qanday omil va mezonlar negizida shakllanib kelayotgani xalqimiz uchun eng aziz va eng milliy bayram – sharqona yangi yil bo'lmish Navro'z ayyomi misolida ayniqsa yorqin namoyon bo'ladi. Barchamiz doimo orziqib kutadigan va katta xursandchilik, shodiyona bilan o'tkazadigan Navro'z bayrami biz uchun hayot abadiyligi, tabiatning ustuvor qudrati va cheksiz saxovatining, ko'p ming yillik milliy qiyofamiz, olijanob urf-odatlarimizning betakror ifodasi bo'lib kelmoqda.

Muxtasar qilib aytganda, yangilanish va ezgulik timsoli bo'lgan Navro'z falsafasi xalqimizga mansub odamiylik, mehr-oqibat, muruvvat va himmat kabi yuksak xususiyatlardan oziqlanib kelgani, ajdodlarimiz asrlar davomida qanday buyuk umuminsoniy g'oyalardan bahramand bo'lib, ma'naviy kamol topganining yana bir tasdig'idir, desak, hech qanday xato bo'lmaydi. Ko'hna tariximizni shu ma'noda ko'z o'ngimizdan o'tkazib, tahlil qiladigan bo'lsak, muhim va ibratli bir fikrni takroran aytishgato'g'ri keladi. Ya'ni, ota-bobolarimiz ruhiy olamining tomir-ildizlari aynan yuqorida zikr etilgan ma'naviy zaminda, tarixda ham, bugun ham barchaning havasini tortib kelayotgan olijanob fazilatlar asosida shakllangan.

Shu o'rinda ma'naviyatning yuksalishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan yana bir mezon – muqaddas dinimiz haqida alohida to'xtalib o'tishni zarur, deb bilaman. Barchamizga yaxshi ma'lumki, din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to'g'risidagi orzu-armonlarini o'zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g'oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir. Ayniqsa, ko'p asrlar mobaynida xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, hayot ma'nosini anglash, milliy madaniyatimiz va turmush tarzimizni, qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimizni bezavol saqlashda muqaddas dinimiz qudratli omil bo'lib kelayotganini alohida ta'kidlash joiz. Nega deganda, insoniylik, mehr-oqibat, halollik, oxiratni o'ylab yashash, yaxshilik, mehr-shafqat singari xalqimizga mansub bo'lgan fazilatlar aynan ana shu zaminda ildiz otadi va rivojlanadi.

Bugungi kunda islom diniga nisbatan butun dunyoda qiziqish va intilish kuchayib, uning xayrixoh va tarafdorlari ko‘payib borayotgani hech kimga sir emas. Buning asosiy sababi muqaddasdinimizning haqqoniyligi va pokligi, insonparvarligi va bag‘rikengligi, odamzotni doimo ezgulikka chorlashi, hayot sinovlarida o‘zini oqlagan qadriyat va an‘analarni ajdodlardan avlodlarga etkazishdagi beqiyos o‘rni va ahamiyati bilan bog‘liq. Xalqimizning ma‘naviyatini shakllantirishga, har qaysi insonning Olloh marhamat qilgan bu hayotda to‘g‘ri yo‘l tanlashi, umrning mazmunini anglashi, avvalambor, ruhiy poklanish, yaxshilik va ezgulikka intilib yashashida uning ta‘sirini boshqa hech qanday kuch bilan qiyoslab bo‘lmaydi, deb o‘ylayman.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, muqaddas islom dinimizni pok saqlash, uni turli xil g‘arazli xuruj va hamlalardan, tuhmat va bo‘htonlardan himoya qilish, uning asl mohiyatini unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodimizga to‘g‘ri tushuntirish, islom madaniyatining ezgu g‘oyalarini keng targ‘ib etish vazifasi hamon dolzarb bo‘lib qolmoqda. Taassufki, ba‘zan islom dini va diniy aqidaparastlik tushunchalarini bir-biridan farqlay olmaslik yoki g‘arazli maqsadda ularni teng qo‘yish kabi holatlar ham ko‘zga tashlanmoqda. Shu bilan birga, islom dinini niqob qilib, manfur ishlarni amalga oshirayotgan mutaassib kuchlar hali ongi shakllanib ulgurmagan, tajribasiz, g‘o‘r yoshlarni o‘z tuzog‘iga ilintirib, bosh-ko‘zini aylantirib, ulardan o‘zining nopok maqsadlari yo‘lida foydalanmoqda. Bunday nojo‘ya harakatlar avvalo muqaddas dinimizning sha‘niga dog‘ bo‘lishini, oxir-oqibatda esa ma‘naviy hayotimizga salbiy ta‘sir ko‘rsatishini barchamiz chuqur anglab olishimiz va shundan xulosa chiqarishimiz zarur.

Ma‘lumki, xalqimiz azaldan islom dini va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo‘shib keladi. Bu haqiqatni jahon jamoatchiligi, butun musulmon dunyosi yaxshi biladi va tan oladi. Nufuzli xalqaro tashkilot bo‘lmish Islom konferensiyasi tashkilotining Ta‘lim, fan va madaniyat masalalari bo‘iicha tuzilmasi - AYSESKO tomonidan Toshkent shahrining 2007 yilda Islom madaniyati poytaxti deb e‘lon qilingani ham ana shunday yuksak e‘tirofning yana bir tasdig‘idir.

Shu sababli biz ma'naviy hayotimizni, milliy ong va qadriyatlarimiz, e'tiqod va tafakkurimiz, urf-odat va an'analarimizni asrab-avaylash, ma'naviy olamimizni yuksaltirishga intilar ekanmiz, bularning barchasi mahalla idorasiga yanada ko'proq imkoniyat berish, uning huquqiy va amaliy vakolatlarini kengaytirish bilan bevosita aloqador ekanini o'zimizga yaxshi tasavvur qilamiz. Shu orqali biz o'zimizning ezgu maqsadimiz bo'lmish erkin fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lida, hech shubhasiz, ulkan qadam qo'ygan bo'lamiz.

Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak. Nega deganda, ulug' adib Cho'lpon aytganidek, adabiyot yashasa – millat yashaydi. Insonning ruhiy kamoloti haqida gapirar ekanmiz, albatta bu maqsadga musiqa san'atisiz erishib bo'lmaydi. Xalqimiz hayotida musiqa azaldan beqiyos o'rin tutib keladi. Samarqand yaqinidagi Mo'minobod qishlog'idan 3 ming 300 yil muqaddam suyakdan yasalgan nay cholg'usi topilgani ham shundan dalolat beradi. Musiqa sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi.

Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan yana bir muhim hayotiy omil – bu ta'lim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog'liqdir. Ma'lumki, otabobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan.

Ma'naviyat haqida har qancha da'vatlar, muhim nazariy fikrlar bildirilmasin, agar ularni jamiyat ongiga singdirish uchun doimiy ish olib bormasak, bu boradagi faoliyatimizni har tomonlama puxta o'ylangan tizimli ravishda tashkil etmasak, tabiiyki, biz ko'zlangan maqsadga erisholmaymiz, ya'ni, inson qalbiga yo'l topolmaymiz. Shuning uchun ham biz bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasidan boshlab, matbuot, televidenie, Internet va boshqa ommaviy axborot vositalari, teatr, kino, adabiyot, musiqa, rassomlik va haykaltaroshlik san'atigacha, bir so'z bilan aytganda, insonning qalbi va tafakkuriga bevosita ta'sir o'tkazadigan barcha

sohalardagi faoliyatimizni xalqning ma'naviy ehtiyojlari, zamonSHu o'rinda tabiiy bir savol tug'iladi: ma'naviyatni chindan hamtalablari asosida yanada kuchaytirishimiz, yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur.

Yangi jamiyat bunyodkori bo'lmish yangi insonni tarbiyalashda hozirgi paytda mahallalarimizda samarali faoliyat olib borayotgan, bu noyob tuzilmani tom ma'noda o'zini o'zi boshqarish idorasiga aylantirishga katta hissa qo'shib kelayotgan mahalla oqsoqollari va faollari, fuqarolar yig'inlarining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy masalalar bo'yicha maslahatchilarining ijobiy ta'siri tobora ortib bormoqda.

Aynan ana shu insonlarning odamlar ko'ngliga yo'l topib, ularning dardutashvishiga sherik bo'lib, o'z vaqtida berayotgan amaliy yordamlari, to'g'ri va o'rinli maslahatlari tufayli oila va maxalla muhitida, butun diyorumizda tinchlik va osoyishtalik o'zaro mehr- oqibat tuyg'ulari kuchayib borayotganini el-yurtimiz yuksak qadrlaydi. Ayniqsa, yosh yigit va qizlarimizning mustaqil hayotga kirib borishi, yosh oilalarning jamiyatdan o'ziga munosib o'rin topishida bu fidoyi va mehribon, jonkuyar odamlarning qanchalik muhim rol o'ynayotganini hurmat bilan e'tirof etishimiz lozim. Jamiyatimiz ma'naviyatini yuksaltirish bilan bog'liq jarayonlarning murakkab tomoni shundaki, butungi kunda boshimizdan kechirayotgan ijtimoiy- siyosiy taraqqiyot yo'lida uchraydigan juda ko'p muammolarni ham nazariy, ham amaliy jihatdan faqat o'z kuchimiz va salohiyatimizga tayanib hal etishga to'g'ri kelmoqda.

Shu maqsadda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı ishlarning amaliy natijasi o'laroq, adabiyot va san'at, madaniyat, matbuot sohasi mafkuraviy tazyiqdan butunlay xalos bo'lganini qayd etish joiz. Har qanday ijod namunasi, badiiy asar sinfiy bo'lishi va qandaydir g'oyaga, kommunistik mafkura manfaatlariga xizmat qilishi kerak, degan qarashlar bugun o'tmishga aylandi. Erkin ijod uchun, milliy qadriyatlarimiz va boy ma'naviyatimizni, xalqimiz tarixini, uning bugungi sermazmun hayotini to'laqonli va haqqoniy aks ettirish uchun zarur sharoitlar yaratildi. Bugungi kunda o'z hayotini ana shunday mas'uliyatli sohaga bag'ishlagan ko'plab iste'dod sohiblari yurtimizda yangi hayot,

yangi jamiyatning ma'naviy asoslarini mustahkamlash, komil insonni tarbiyalash yo'lida munosib hissa qo'shib kelmoqda. Ayniqsa, hozirgi vaqtda dunyoda kuchayib borayotgan turli ma'naviy tahdidlarning oldini olish, «ommaviy madaniyat»ning zararli ta'siridan farzandlarimizning ongu tafakkurini himoya qilishda ilmu fan va madaniyat jamoatchiligi, ijod ahlining o'рни va roli tobora ortib bormoqda. Nega deganda, bizning milliy ruhimiz va tabiatimizga yot va begona bo'lgan ana shunday «madaniyat» namunalarini faqat tanqid va inkor qilish yoki ularni taqiklash bilan biron natijaga erishib bo'lmaydi. Bunday xatarlardan hayotimizni asrash, ma'naviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik uchun avvalambor ezgu insoniy g'oyalar va yuksak mahorat bilan yaratilgan asarlar orqali xalqimizning madaniy saviyasini yuksaltirish, boshqacha aytganda, bugun jahon maydonida yuz berayotgan keskin aql-zakovat va iste'dod musobaqasida bellashuvga qodir bo'lishimiz shart.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, hozirgi paytda hayotimizni elektron axborot vositalari, xususan, televidenie va radiosiz umuman tasavvur etib bo'lmaydi. Bugungi kunda ular bir vaqtning o'zida ham axborot maydoni, ham ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy minbar, shu bilan birga, insonga madaniy, badiiy-estetik oziq beradigan va hordiq chiqaradigan makon vazifasini bajarmoqda, desak, xato bo'lmaydi.

Insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo'lsa, so'z san'ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotning insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarning esa insonruhining muhandislari, deb ta'riflanishi bejiz emas, albatta. Xalqimiz orasidan mana shu g'oyat mashaqqatli sohaga butun hayoti va noyob iste'dodini bag'ishlab, adabiyotimiz xazinasidan munosib o'rin egallagan o'lmas asarlar yaratgan buyuk so'z san'atkorlari – ularni barchasining nomlarini zikr etish, albatta, ko'p vaqtni talab qilgan bo'lur edi – etishib chiqqani bilan barchamiz haqli ravishda faxrlanamiz. Adabiyot, so'z san'ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo'lib keladi. Xususan, mustaqillik yillarida yurtimizda ma'naviyatimizning g'oyat muhim va uzviy qismi bo'lgan adabiyotni rivojlantirish, shoir va yozuvchilarimizning ezgu mehnatini qadrlash va munosib rag'batlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar o'z hosilini berayotgani, badiiy adabiyotimiz

mavzular ko‘lami jihatidan ham, janrlar nuqtai nazaridan ham rang-barang bo‘lib borayotgani, adabiyot maydonida yangi-yangi nomlar paydo bo‘layotgani kitobxon xalqimizni albatta quvontiradi. Bularning barchasi milliy tiklanish jarayonlari qalam ahlining ijodiy izlanishlari uchun qanday katta ufqdan ochib berganini yana bir bor ko‘rsatadi.

Agar biz O‘zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug‘ kelajagini ulug‘lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo‘lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak. Nega deganda, ulug‘ adib Cho‘lpon aytganidek, adabiyot yashasa – millat yashaydi.

Hamimiz yaxshi tushunamiz - adabiyotda tarixiy haqiqatni tiklash bilan birga, xalqimiz adiblarimizdan bugungi kunimiz haqida, zamonamiz qahramonlari haqida yangi-yangi asarlar kutayotgani tabiiydir. Keyingi yillarda ana shunday ruh bilan yo‘g‘rilgan bir qancha she‘riy asarlar paydo bo‘layotganini mamuniyat bilan ta‘kidlash joiz. Ishonamizki, yozuvchi va dramaturglarimiz ham bugungiavlodlarning fidokorona mehnati, bunyodkorlik salohiyati, zamondoshlarimizning ma‘naviy-ruhiy dunyosi, hayotga kirib kelayotgan va hal qiluvchi kuchga aylanayotgan yoshlarimizning pok orzu- intilishlari o‘zining teran badiiy ifodasini topgan yangi asarlar bilan xalqimizni xushnud etadilar.

Bugungi kunda xalqaro hamjamiyat safidan munosib va mustahkam o‘rin egallab borayotgan O‘zbekistonimizga, uning tarixan qisqa davrda qo‘lga kiritgan ulkan marralariga, el-yurtimizning ma‘naviy ildizlari, urf-odat va an‘analariga, bir so‘z bilan aytganda, o‘zbek xarakteri, o‘zbek tabiatiga butun dunyoda qiziqish va hurmat tobora ortib bormoqda. Tabiiyki, uzoq-yaqindagi xorijiy do‘stu birodarlarimiz, jahon jamoatchiligi eng avvalo bizning zamonaviy adabiyotimiz va san‘atimiz orqali o‘zlarini qiziqtiradigan ana shunday savollarga javob topishni istaydi. Keyingi yillarda milliy adabiyotimizning eng yaxshinamunalarini chet tillarga tarjima qilish va shu asosda xalqimizning hayot tarzi va insoniy fazilatlarini keng namoyish etish borasida ham katta imkoniyatlar paydo bo‘lmoqda.

Uzoq yillar davomida o‘zbek adabiyotini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ona tilimizdan tarjima qilib kelgan chet ellik tarjimonlar bilan birga, mamlakatimiz oliy o‘quv yurtlarida ta‘lim olayotgan iste‘dodli o‘g‘il-qizlarimizni mana shu mashaqqatli, ayni paytda olijanob ishga jalb etish, bu masalaning yechimi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan tashkiliy-amaliy vazifalarni hal qilishimiz maqsadga muvofiq bo‘lur edi.

Islom Karimovning o‘z ona tili va adabiyotga bo‘lgan mehri, qalb qo‘ridagi purhikmat so‘zlari Hazrat Alisher Navoiyning “Tilga e‘tiborsiz - elga e‘tiborsiz” degan qarashlarini to‘ldirsa, Abdulla Avloniyning “Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurg‘on oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur”, - degan ta‘kidlarining muqoyasa qilinishi o‘zbek millatining ildizi nihoyatda baquvvat va chuqur ekanligi, uning milliy qadriyatlari, merosi abadul-abad kelajak avlod tomonidan ham asrab-avaylanishi e‘tirof etiladi.

XULOSA

Insonparvarlik bilan yo‘g‘rilgan, taraqqiyotga xizmat qiladigan bunyodkor g‘oyalar qachon, qaysi mamlakatda tug‘ilmasin, tub mohiyatiga ko‘ra umuminsoniy mazmun kasb etadi. Haqiqiy bunyodkor g‘oyalar oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalari, ifoda tili va shakli bo‘yicha milliy ko‘rinish olsa-da, mazmun va mohiyati bo‘yicha umuminsoniy g‘oyalarga yaqin turadi. Umuminsoniy g‘oyalar targ‘ibotchisi, buyuk daho Islom Karimov asarlarini o‘rganish va tadqiq etish jarayonida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Birinchi Prezidentimizning ijtimoiy mavzudagi barcha asarlari jamiki fanlar uchun nafaqat metodologik, nazariy asos, balki ilmiy manba, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sodiq qolishni o‘rgatuvchi ibrat maktabi, benazir dastur sifatida ahamiyatga molikdir. Shu bois, bu asarlarni ilmiy jihatdan o‘rganish, tadqiq etish dolzarb masalalardan biri deb o‘ylaymiz.

2. Vatanga, ona yerga va xalqqa muhabbat, sadoqat, ularni sevish, har qanday ichki va tashqi dushmanlardan ko‘z qorachig‘iday asrash, ona yurtga sidqidildan xizmat qilish asosiy o‘rinni egallaydi. Bunday muqaddas tuyg‘ularni yoshlar ongiga singdirishda Islom Karimovning asarlari ilmiy va amaliy jihatdan muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Kitobxon xalq og‘zaki ijodi namunalaridan keltirilgan misollar yoki ularga munosabat Islom Karimovning barcha kitoblari, ma‘ruzalarida o‘z ifodasini topganligiga amin bo‘ladi.

3. Mustaqillik har bir shaxs uchun mustaqil fikrlashni va mustaqil ijodiy faoliyat sohibi bo‘lishni, ma‘naviy va aqliy jihatdan yuksalishni taqozo qiladi. Chunki, “taraqqiyot taqdirini ma‘naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Aqliy zakovat va ruhiy ma‘naviy salohiyat - ma‘rifatli insonning ikki qanotidir”, deb ta‘kidlaydi sobiq Yurtboshimiz. Shu boisdan ma‘naviyat masalasi ijtimoiy hayotimizning muhim jabhalaridan biriga aylanib qoldi. Bu esa, o‘z navbatida, har tomonlama yetuk va komil insonni tarbiyalashning sharti hisoblanadi.

4. Yangi jamiyatimiz asoschisi, Birinchi Prezidentimiz xalqning ishonchi va mehri ezgu ishlarni amalga oshirishda kuch-quvvat bag'ishlashini har bir nutq va ma'ruzalarida izohlab o'tganlarki, ularni hikmatli so'z sifatida o'zbek xalqining qalbidan joy olgan desak mubolag'a bo'lmaydi

5. Mamlakatning barcha jabhalarida rivojlanishni to'g'ri yo'lga qo'yish maqsadida chuqur o'ylangan taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlarini belgilash va amalga oshirishda hayotiy tajribalarga tayanib, xalq og'zaki ijodining durdonalari - o'zbek xalq maqollari, hikmatli so'zlarning ma'nosini teran anglab, tahliliy yondashilganlik bugungi kunda o'zbek xalqi o'ziga xos va mos yo'lni tanlab olishida buyuk yurtboshimizning nutqlaridagi purhikmat so'zlarni ongi shuurida singdirgani madad bo'lgan desak, to'g'ri bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. –T.: O‘zbekiston, 1996.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: O‘zbekiston, 1998.
3. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi - xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. –T.: O‘zbekiston, 2000.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008
5. Karimov I.A. Adabiyotga e’tibor-ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. –T.: O‘zbekiston, 2009.
6. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: O‘zbekiston, 2011.
7. Prezident Islom Karimovning “O‘rta asarlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi roli va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro klnferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi. “Xalq so‘zi” 16.05.2014.
8. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish- eng oliy saodatdir. – T.: 2015.
9. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: Tamaddun, 2011.
10. Hikmatlar xazinasi. –T.: O‘zbtkiston, 2010.
11. Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. –T.: Movarounnahr, 2001.
12. Alimov P. Tarix, shaxs, badia. –T.: O‘zbekiston, 1991.

Elektron ta’lim resurslari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.Ziyonet.uz
4. www.edu.uz
5. [tdpu-INTRANET. Ped](#)

